Ovozli xabar: Interaktiv tinglash idrok va tushunishni anglatadigan tinglovchi faol rol o'ynaydigan va bir vaqtning o'zida tinglovchi va so'zlovchi rolini bajaradigan og'zaki-nutq aloqasi jarayonida ovozli xabarlardan tinglovchi savol beradi, audio xabardan tushunganlari yuzasidan javob beradi, bunday holda, og'zaki muloqot hamkorligi nazarda tutiladi. Muloqot jarayonida suhbat ishtirokchilari ma'lumotning ma'nosini, grammatik tuzilishini tushunish uchun aniq savollar berish va o'z navbatida so'zlovchini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talabalarda ko'pincha bunday jarayon qiyin sanaladi, ular asosan fikrlarni shakllantirishi va o'zaro yangi bilimlarni egallashlari va muloqot qobiliyatlarining rivojlanishi eng muhim vosita bo'lib hisoblaniladi. Biz tinglashni og'zaki muloqotning tarkibiy qismi sifatida ajratamiz va interaktiv tinglash ham o'quv faoliyatidagi tinglashning bir turi sifatida qaraladi. Interaktiv tinglash ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan kommunikativ vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi vazifalar birinchi navbatda mazmunni idrok etish va tushunish malakalarini rivojlantirish lingvistik shakl emas, balki audio xabardagi yangiliklarni to'g'ridan to'g'ri tushunishga yo'naltirilgan. Tinglovchining javobini o'z ichiga olgan tanqidiy tinglashning asosiy maqsadi tinglovchining ohang orqali ifoda etishi, ovozli xabarga nisbatan uning nuqtqda ravon shakllanishiga zamin yaratib beradi. Tinglovchi nafaqat eshitish qobiliyatiga, balki eshitish qobiliyatidagi aniqlikka ham ega bo'lishi kerak. Tinglab tushunishni rivojlantirishda ma'lum bir soha bo'yicha tegishli ma'lumot, shuningdek, ijtimoiy-madaniy, lingvo-madaniy va madaniyatlararo kompetentsiya hamda matnni tanqidiy tushunish, ovozli matnni idrok etish va uni mazmunini tushunish jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Tanqidiy tinglash rivojlantirish uchun ham turli uzunlikdagi audio matnlarni

tinglash, ham qisqa xabarlarni, ham uzoq davom etadigan audio xabarlarni tinglash [ma'ruzalar] orqali tinglashning ushbu turini takomillashtiramiz. Chet tili kursi doirasida aniq maqsadlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun keng qo'llanilishi kerak, bunda tinglovchiga nafaqat matn mazmunini tushunish, balki o'z fikrini asoslash uchun dalillar keltirish kerakligi ilgari surilgan. Talabalar matnning birinchi qismini tinglashadi, keyin o'qituvchi yozuvni tinglashni to'xtatadi va pauza davrida matnning ikkinchi qismini tinglashdan oldin, talabalar o'zlari tinglagan audio xabarning mazmuni haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Vazifani bajarish uchun quyidagi tartib bo'yicha takrorlaydi. Talabalar topshiriqni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun taqdim etilgan matnning davomiyligi 1-2 daqiqadan oshmasligi kerak, chunki qabul qilingan tovush ma'lumotlari qisqa muddatli xotirada 60 dan 90 sekundgacha saqlanadi [M.Rost, 2001, 109-bet][20].

Tanqidiy tinglash nafaqat eshitish qobiliyatini, balki nutq, yozish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tanqidiy tinglash, audio material mazmunining asosiy jihatidir. Ovozli matn, ovozli xabar mavzusini og'zaki va yozma ravishda keyingi qismlarda muhokama qilish uchun rag'batlantiruvchi, motivatsion omil bo'ladi. Eshitilgan audio xabar asosida voqealar rivojini bashorat qilish kabi muammoli xarakterdagi vazifalar; sharh yozish; turli nuqtai nazarlarni solishtirish; audioxabarda bayon etilgan nuqtai nazarga rozilik yoki kelishmovchilikning asosli asoslanishi; munozara - tanqidiy tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi.

## **1.2. Tinglab tushinishni o'rganishda dialogik va monologik nutq metodikasi**

Dialogik va monologik nutqlarni tinglab tushunish metodikasining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Dialogik nutq, ma'lumki, vaziyat nutq, ya'ni ma'lum nutq vaziyatida davom etadigan nutq bo'lib unda lingvistik va ekstrolingvistik faktorlar mimika, imo-ishora, suhbatdoshning holati va hokazolardan iboratdir. Dialog nutqni ikki xil idrok etishi mumkin. Birinchidan,

suhbat davomidagi, ya'ni aynan dialog nutq protssesidagi so'zlarni tinglab tushunish va ikkinchidan, dialog nutqni go'yo tashqarida turib idrok etish mumkin. Suhbat davomid o'quvchilar so'zlarga tez javob berishda qiynaladilar. To'g'ri diolog davomida qayta so'rash, ya'ni tushunilmagan luqmalarni bilib olgach, takrorlash mumkin. Tinglab tushunishning bu turida ekstralingvistik faktorlar tushunishni yengillashtiradi, chunki mimika, qo'l, harakatlari, hamsuhbat chehrasidagi rozilik alomatlari—bularning barchasi bevosita aloqa bog'lash uchun sharoit yaratadi, ko'p tayanchlardan foydalanish imkonini beradi va tushunishni bir muncha yengillashtiradi. Odatda bunday nutq metodikada qaratilgan nutq deb ataladi. Ikkinchi xil idrok etishda nutq tinglovchiga qaratilmagani uchun qiyinchilik keskin ortadi. Tinglovchi bundan tashqari, o'z diqqat-e'tiborini har ikkala suhbatdoshning luqmalariga qaratishi kerak. Chet tilida ko'rsatiladigan teatr postanovkalarini idrok etish va tushunishning qiyinligi ham eng avvalo mana shuning uchundir.

Monolog, ya'ni kontekstli nutqni tinglab tushunish o'ziga xos qiyinchiliklarga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, monolog nutq suhbat vaqtida dialog nutqqa nisbatan tinglovchiga kamroq qaratilgan bo'ladi. Ekstralingvistik faktorlar bevosita aloqadagiga qaraganda kamroq ahamiyat kasb etadi. Monolog fikrning tuzilishi kengligi, mantiqiyliги bilan ajralib turadi, dialog nutqdan farqli ravishda aytib tugatilmagan o'rinlar ekstralingvistik momentlar, bilan to'ldirib ketiladi. Monolog nutqning yo'nalishi, odatda normal tempda bo'lishi sababli qayta so'rab o'tirishlarga imkon bermaydi, eshitib bo'lingan joyga qaytish uchun to'xtalishga yo'l qo'ymaydi. Monolog nutqni tinglab tushunish hamma vaqt ozmi-ko'pmi cho'ziladigan vaqt bilan bog'liq bo'ladi, bu esa ayrim luqmalar emas. Shuning uchun tinglovchining eshitish xotirasi yetarli darajada rivojlangan bo'lishi talab qilinadi. Tinglab tushunishning eng murakkab turi radio yoki magnitodasturdan eshitiladigan monolog nutqni idrok etishdir. Bunda avvalo nutqning umuman hech kimga qaratilmaganligini aytish lozim. Tinglovchi so'zlovchini ko'rmaydi, axborot bittagina tinglash kanali orqali keladi. Monolog nutq vaqtida tinglovchi xar

holda mimikani, masalan, lector mimikasini kuzatib borishi mumkin. Yozilgan nutqni tinglab tushunishni juda ham murakkablashtiradigan ikkinchi faktor yozilgan nutqqa ta'sir ko'rsatuvchi nuqsonlar sababli paydo bo'ladigan tovush kamchiliklaridir. Maxsus olib borilgan tadqiqotlarda tovush signallarini hatto eng yuqori darajada yozib olinganda ham axborotni qabul qilish va qayta ishlashga ta'sir ko'rsatuvchi kichik nuqsonlarni yo'q qilib bo'lmasligi isbotlangan. Apparatlarning buzuvchiligi tufayli paydo bo'lgan nuqsonlar aytilayotgan fikrlar mazmunini tushunmaslikni tushinish mumkin. Dialog nutqni tinglab tushunish bir tomondan maktab vazifasiga kiritilmasligi mumkin, chunki u uncha katta ahamiyatga ega emas. Undan faqat spektakl va radiopostanovkani tinglashda foydalanish mumkin. Shubhasiz, monolog nutqni tinglab tushunish amaliy jihatdan muhimdir, chunki, ko'pincha dialog nutq ichiga monolog nutq elementlari kirib qoladi. Bundan tashqari qisqa monologlarni idrok etishga doir nutq ko'nikmasining o'zi keng tarqalgan. Tovush yozish texnikasi rivojlangan hozirgi sharoitda yozib olingan nutqni tinglab tushunishni talab sifatida qo'yish lozim. Binobarin yozib olingan nutqni tinglab tushunish ko'nikmasi til ustida mustaqil ishlashning eng muhim vositasidir. Shu bilan birga o'rta maktabdagi chet tilini o'rganishta ajratilgai soatlar miqdori cheklangan sharoitda til materialini muayyan doirada cheklamay, o'quvchilarning hamma yoki ko'pchilik temalarga doir ovozli nutqning har xil turlarini eshitib tushunishini talab qilib bo'lmasligi ayondir. Hozirgi vaqtda nutqni idrok etish qiyinligini va maktabdagi praktika hajmining kamligini hicobga olib, birmuncha kichikroq talablar qo'yish maqsadga muvofiqdir: o'quvchilar o'rganilgan materiallar bo'yicha turmush temasidagi shaxsan o'zlariga yoki bevosita aloqa protsessida auditoriyaga qaratilgan ovozli (dialog) nutqni yoki normal temp va so'zlovchining aniq diksiyasi bilan magnet plyonkasiga yozilgan (monolog) nutqni tushuna olishlari kerak. Endi o'quvchilar nutqni tinglab tushunishni amalga oshirish uchun o'zlashtirishlari lozim bo'lgan konkret ko'nikmalarni belgilashga harakat qilamiz. Bunda ko'nikmalarning ikki gruppasini: og'zaki tushunish bilan bog'liq ko'nikmalar va predmet hamda mantiqiy tushunish

uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ko'rsatish mumkin. Birinchi gruppani bilish protsessni, tovush kodini tovush motor kodiga aylantirishni va tasviriy tekstlarni og'zaki tushunishni ta'minlovchi ko'nikmalar tashkil qiladi. Hozirgi zamon metodikasi ana shu gruppaga quyidagilarni kiritadi:

- 1) tanish va notanish doirada o'rganilgan leksika asosida tuzilgan nutq namunalarini bilish ko'nikmasini;
- 2) yangi leksik ma'no bilan to'ldirilgan nutq namunalarini bilish va tushunish ko'nikmasini;
- 3) kontekstga tayangan holda o'xshash so'zlarni, nutq namunalarini differentsiallash ko'nikmasini;
- 4) nutq vaziyatiga tayanib tekstdagi kam uchraydigan notanish so'zlarni tushunish ko'nikmasini.

Predmetli va mantiqiy tushunishni shakllantirish uchun quyidagi ko'nikmalar zarur:

- 1) bir tovushni ikkinchisidan ajrata olish, g'oyalarni, asosiy va ikkinchi darajali qismlarga bo'la olish;
- 2) ekspozitsiyaga (og'zaki yoki ko'rgazmali) tayanib monologik fikrning yoki nutq vaziyatiga tayanib dialog nutqning bo'lajak mazmunini oldindan aytib bera olish;
- 3) ayrim tushunulmaydigan joylari bo'lishiga qaramay fikrning umumiy mazmunini tushuna olish.

Keyingi ko'nikma juda muhimdir, chunki amalda o'quvchilar faqat va doimo o'rganilgan tema asosida tuzilgan nutqni idrok etmaydilar.

Ta'limning **birinchi bosqichi** boshlang'ich pallani va o'rta bosqichning bir qismini, ya'ni yangi o'quv planiga muvofiq IV- VI sinflarni o'z ichiga olishi kerak. Bu bosqichda asosiy e'tibor dialog va monolog nutqlarga muvofiq ravishda og'zaki tushunishni shakllantirishga qaratilishi kerak. Kontekstga yoki vaziyatga tayanib kam uchraydigan so'zlarni tushunish ko'nikmasi bundan mustasnodir, chunki, yuqorida aytilganidek, bu ko'nikma ancha qiyindir. Bundan tashqari, ahmlab bilish ko'nikmasi predmetli mantiqiy tushunish bilan

bog'liq bo'lib, kontekstlarning kengaytirilishini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bu bosqichda tinglab tushunishni shakllantirishga tayyorgarlik ko'riladi. Hozirgi zamon metodikasi avval diolog nutqni, keyin esa, monolog nutqni shakllantirish haqidagi to'g'ri metod vakillari tezisini rad etganligi sababli ekspressiv og'zaki nutqning bu turlarini o'rgatish parallel va o'zaro bog'langan holda borishi kerak. Bundan dialog va monolog nutqni tinglab tushunishni o'rgatish ham ana shu yo'sinda amalga oshirilishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

**Ikkinchi bosqichni** vazifasi og'zaki tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishni davom ettirishdan iborat bo'lgan yuqori sinflar tashkil qiladi, chunki bu sinflarda yangi til materiali intensiv ravishda to'plana boradi, shuning uchun uning bazasida yangi materialni differensiallash ko'nikmasini, uni yangi kontekstda taniy olish hamda tushunish va hokazolarni shakllantirish zarur. Bu bosqichning boshqa bosqichlardan farqi shundan iboratki, unga tasviriy tekstlardan tashqari hikoya tekstlari, qiziqarli hikoyalar ham kiradi.

Shu tariqa tinglab tushunish ko'nikmalari iyerarxiyasi nutq faoliyatining bosqichlariga ko'ra quyidagicha ifodalaydi:

1-bosqich—og'zaki tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni ko'proq rivojlantirish;

2-bosqich—og'zaki va predmetlimantiqiy tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni baravar o'stirish;

3-bosqich predmetli mantiqiy tushunishni belgilaydigan ko'nikmalarni ko'proq o'stirish. Ana shu bosqichlar o'rtasida ma'lum bog'lanish borligi—har bir bosqich o'quvchilarni keyingi bosqichga tayyorlashi ko'rinib turibdi.

Dialog va monolog nutqlarni idrok etishga tayyorlovchi nutq mashqlariga murojaat qilamiz. Eng avvalo shuni aytish kerakki, dialog irosessidagi idrok etish gapirish bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqiladi. Biroq shunga ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mashqlarni ajratish mumkin.

Eng avvalo dialog olib borish uchun luqмага tez javob qaytarish lozim. Shu maqsadda o'qituvchi luqmasi bo'yicha harakatlarni bajarish mashqlarini tavsiya etish mumkin. Bu mashqlar yuqori tempda o'tkazilishi kerak. Aks holda u o'zining didaktik ma'nosini yo'qotadi.

O'quvchilar luqmalarni juda tez anglab, o'z luqmalarini aytishlari kerak. Sinfda o'quvchilar turlicha javob berishlari mumkin, shunda o'qituvchi o'zining luqmasini turli variantlarda beradi. Bu mashqni magnitodastur yozuvidan foydalanib amalga oshirish juda foydalidir. Luqmalarning yarmisi intervallar bilan yozib olinadi, o'quvchilar ana shu intervallarda o'zlarining luqmalarini aytadilar. Bunda luqmani tez idrok etish va uni tushunish ko'nikmasi hosil qilinadi. Ko'rinib turibdiki, tinglab tushunish mashqlari dialog protsessida gapirishni ham shakllantirishi tufayli ikki xil vazifani bajaradi. Zotan dialogda tinglab tushunish va gapirish birbiriga uzviy bog'liqdir. Monolog nutqni tinglab tushunishga doir nutq mashqlari eng avvalo tekstni tushunish bilan bajariladigan didaktik vazifaga ko'ra belgilanadi. Agar eshitilgan tekst ichidan eng muhimini ajratib olish vazifasi qo'yilsa, quyidagi vazifalar berilishi mumkin: ona tili yoki chet tilida tekst mazmunini o'z so'zlari bilan qisqacha gapirib berish, plan tuzish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarish, audiotekst qismlariga sarlavhalar qo'yish va hokazo. Agar tinglab tushunish vaqtida o'quvchilar diqqatini detallarga jalb etish vazifasi qo'yilsa, unda tekstga yaqin mazmunda so'zlab berish, ayrim gaplarga savollar qo'yish, gaplar tanlab olish, qahramonni, voqealar bo'lgan joyni ifodalovchi gaplarni ajratib olish foydalidir. Ammo shu faktorni hisobga olishning o'zi yetarli emas. Didaktik vazifaning xarakteri yuqoridagilardan tashqari, o'qitishning bosqichi va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab ham belgilanadi. Monolog nutqni tinglab tushunish mashqlari gapirishga diologlardagidek yaqin bo'lmasada, yetarli darajada bog'liqdir. Ta'limning dastlabki va qisman o'rta bosqichida o'quvchilarning so'zlashuv ko'nikma va malakalari unchalik barqaror bo'lmasligi sababli qayta ishlashga doir didaktik vazifalardan har doim ham ko'zlangan maqsadga erishilavermaydi. O'quvchi audio matnning mazmunini



yaxshi va to'la tushunsada, ko'nikma va malakalari yetarlicha rivojlanmagani uchun didaktik vazifani bajara olmaydi. Bunday didaktik vazifalarni bajarishda kerakli gaplarni doskaga yozib qo'ysa ham bo'ladi. Audio matnning ikki xil variantini tinglab, ularning farqlarini aniqlash murakkabroq vazifadir. Bunday vazifalarni ko'rgazmali qo'llanmalarga tayanib bajarish uchun ham berish mumkin. Bunda o'quvchilarga rasmlar seriyasi berilib, ularni mazmun mantiqiga muvofiq tartibda terib chiqishhamda taalluqlilarini ajratib olish tavsifiya etiladi.

### **1.3. Tinglab tushunishni o'quv faoliyati va tarkibiy qismi sifatida og'zaki nutq suhbatidagi o'rni**

Xorijiy tillarni o'qitish usullarida ayrim tadqiqotchilar tinglashni o'rganish faoliyati va tinglashni nutq faoliyatining bir turi sifatida ajratadilar. Shunga ko'ra, "ta'lim sohasida tinglab tushunish" tushunchasi bilan bir qatorda "kommunikativ tinglash" tushunchasi alohida ajralib turadi [Shukin, 2011]. Chet el nutqini eshitish orqali tushunish ko'nikma va malakalari tabiiy nutqiy vaziyatda ham, real nutqiy muloqot jarayonida ham, tinglashni o'rganish bo'yicha muayyan vazifalarni bajarish jarayoni ham keng shakllangan.

Tinglab tushunish bir martalik tinglash jarayonida og'zaki nutqni eshitish orqali idrok etish va tushunishga qaratilgan nutq faoliyatining retseptiv turi" deb ta'riflanadi [Galskova va Gez, 2008, 188-bet][22]. Kommunikativ tinglashni trening mashg'ulotlar orqali ajratishning muhim mezonini bu audio material taqdimotlarining soni hisoblanadi. Og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish tinglashni o'rgatish uchun, xususan, muloqotning haqiqiy nutq vaziyatini tiklaydigan kommunikativ mashqlarni yaratishda muhim omil hisoblanadi.

N.I. Rogic to'g'ri ta'kidlaganidek, haqiqiy muloqot muayyan sharoitlarda sodir bo'ladi, ma'lum maqom va ijtimoiy rollarga ega bo'lgan odamlar muloqotga kirishlari orqali amalga oshadi. Muloqot ishtirokchilarining har biri o'zining kommunikativ niyatini amalga oshiradi, haqiqiy maqsadni ko'zlaydi.

Shunday qilib, talaba tinglovchi sifatida harakat qiladigan og'zaki muloqotni o'zlashtirishi va tinglashni bir vaqtning o'zida to'g'ri taqsimlay oladigan shaxs [Rogic.2017.68-bet][37]. Ta'lim jarayonida tinglashni o'rganishning barcha bosqichlarida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lishi shart.

Muloqotning nutqiy vaziyatida chet tilidagi nutqni tinglash nafaqat pertseptiv jarayon, balki ijtimoiy faoliyat hamdir. Shuning uchun eshitish qobiliyati va qobiliyatlari bilan bir qatorda suhbatni o'tkazish qobiliyatini rivojlantirish kerak, chunki suhbat davomida ikkala suhbatdosh ham tinglovchi va so'zlovchi rolini bajaradi. Tinglashni og'zaki-nutq muloqotining tarkibiy qismi sifatida ko'rib, D. Flowerdew va L. Miller [Flowerdew, Miller, 2005, 52-bet][5] suhbatni o'tkazish jarayonida tinglovchining muayyan turlarini ajratib ko'rsatadilar:

Muloqot davomida suhbatning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish kerak

- muloqot yo'nalishini o'zgartirish;
- tegishli signallardan foydalanish orqali tinglovchi tovushli nutqni idrok etish va tushunish;
- keltirilgan fikrni o'z talqini orqali aniqlashtirish;
- suhbatdoshlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni xatolar yoki noaniqliklar bartaraf etish;

Mazmunli suhbat uchun, avvalambor, suhbatning mantiqiy tuzilishi qanday qurilganligini bilishimiz kerak - suhbatning boshlanishi, tegishli mavzularni muhokama qilishning muhim jarayoni va suhbatning tugash qismi uning mantiqiy shakllanishini ta'minlaydi. Muloqotni boshlash uchun kamida ikkita ishtirokchi talab qilinadi - suhbatning tashabbuskori bo'lgan ma'ruzachi va suhbatdosh sifatida tinglovchi. Tashabbuschi suhbatni muayyan xabar yoki murojaatni o'z ichiga olgan murojaat, bayonot, savol bilan boshlaydi. Tinglovchining o'rnini esa belgilangan tegishli savollarga suhbatning keyingi jarayonlarida javob berishdan iborat.

Mavzularni muhokama qilish suhbatning asosiy qismidir. Suhbatning rivojlanish yo'nalishini va shunga mos ravishda o'tishini yana bir muhokama mavzusi orqali tinglovchi ta'minlaydi. Tinglovchining roli yangi muhokama etilayotgan mavzuga yangiliklar asnosida yondashishi va bu usulga o'tishi nutq vaziyatidagi momentni yanada yaxshilashga olib keladi. Suhbatni tugatish jarayonidan keyingi yondashuv, kommunikativ maqsadga erishish uchun ham muhimdir. Tinglovchi talabanning ma'ruzachi nimani xohlayotganini o'z vaqtida anglay olmaslik suhbatni tezda yakunlashga, noqulay vaziyatga olib kelishiga, natijada aloqa yetishmovchiligiga sabab bo'ladi.

Tinglovchi talabanning nutqiy faoliyati ham suhbatdagi faol ishtirokini hamda muhokama qilinayotgan mavzu va mavzuga munosabatini ko'rsatish uchun tegishli signallar, ya'ni iboralar kelishuv, kelishmovchilik yoki befarqlik u yoki bu signal ma'ruzachiga suhbat yo'nalishini o'zgartirish zarurligini ta'minlaydi. Muloqotni davom ettirish uchun tinglovchi ma'ruzachining bayonotini takrorlashi, fikrni o'z qarashlari orqali taklif qilishi va shu bilan ma'ruzachining o'z bayonot g'oyasini tushunishini namoyish qilishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyati tinglovchining keyingisini oldindan bilish qobiliyatiga bog'liq ma'ruzachining nusxasi, shuningdek, suhbatni o'tkazish uchun tegishli strategiyani qo'llash, ayniqsa, og'zaki muloqot jarayonida takrorlash (mulohazalar almashish) qobiliyati bilan bog'liqdir.

Tinglash qobiliyatidan foydalanishni nazarda tutadigan haqiqiy og'zaki nutqiy muloqotning ba'zi holatlarini ajratib ko'rsatishimiz kerak. Bunga tengdoshlar, hamkasblar yoki oila a'zolari bilan turli muammolarni muhokama qilish;

- yangiliklar almashinuvini ta'minlash;
- tadbirni tashkil etishni muhokama qilish;
- ziyofatda "kichik" suhbat tashkil etish;
- seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish;
- intervyu berish yoki intervyularda ishtirok etish;

O'quv faoliyati ham o'zining tashqi tuzilishiga ega va u quyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1) motivatsiya;
- 2) o'quv maqsadlarining muayyan vazifasi;
- 3) o'quv faoliyatini nazorat qilish;
- 4) o'zini o'zi boshqarishni takomillashtirish;
- 5) o'z-o'zini baholashni tashkillashtirish;

Ta'lim jarayonida tinglab tushunish - bu talabalar o'zlashtirgan ma'lumotlarni idrok etishi hamda tinglab tushunish uchun harakatlar va strategiyalarni boshqaradigan va tashkil etilgan jarayon bo'lib hisoblanadi. Tinglash ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muayyan harakatlarni amalga oshirish va tegishli ta'lim vazifalarini hal qilish muhim sanaladi.

Tinglab tushunish o'quv faoliyatida sifatida ma'lumotni samarali idrok etish va uni yanada samarali tushunishga yordam beradi, chunki talabalarga aniq maqsad, ularga aniq belgi beriladi, ma'lumotni eshitish orqali idrok etish va tushunish jarayoni yanada sifatli ta'minlashini takomillashtiradi.

### **1-bob bo'yicha xulosalar**

- 1) Tinglab tushunish deganda tinglovchi kiruvchi tovushli xabarni taniydi, idrok qiladi, tushunadi va izohlaydi, faol ongli nutqiy fikrlash faoliyati tushuniladi.
- 2) Tinglab tushunish bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ovozli xabarni idrok etish va tushunishning yagona jarayonini ta'minlaydi.
- 3) "Tinglab tushunish orqali nutqni idrok etish va tushunish" tushunchasi psixolingvistik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi, "tinglash" esa uslubiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi, chunki tinglashni o'rganish ta'lim jarayonining tarkibiy qismidir.
- 4) Axborotni idrok etish va tushunishda tinglovchi tilni bilish darajasiga, kiruvchi tovush axborotining turiga, maqsadiga qarab nutqni idrok etishning "yuqoridan pastga" modelidan ham, nutqni idrok etishning "pastdan yuqoriga"

modelidan ham foydalanadi va tinglash turi, muloqotning nutq holatini ta'minlaydi.

5) Tinglab tushunishning asosiy qiyinchiliklari: tilni bilish darajasining yetarli emasligi; pertseptiv mexanizmlarning ishlashiga asoslangan tinglash strategiyalari haqida bilimlarning yetishmasligi; idrok etish shartlari; ijtimoiy-madaniy kompetentsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligidan yuzaga keladi.

## II BOB. TINGLAB TUSHUNISH-NUTQ FAOLIYATI TURI SIFATIDA

### 2.1. Tinglash malakalari va tinglab tushinish qobiliyatlarning tasnifi

Xorijiy tillarni o'qitish metodologiyasida tinglab tushinish qobiliyati yuqori darajaga ko'tarilgan va alohida tovushlar va tovush komplekslarini, shu jumladan yo'nalishdagi turli xil intonatsion tuzilmalarni eshitish orqali tanib olish va ajratish bilan bog'liq nutq deb ta'riflanadi. [Azimov, Shukin, 2009, 25-bet][13]. An'anaga ko'ra, eshitish qobiliyatining ikkita asosiy guruhi mavjud:

- leksik
- grammatik

O'z navbatida, eshitish qobiliyati - bu eshitish orqali qabul qilinadigan xorijiy matnlarning ma'nosini tushunish qobiliyatini ta'minlaydigan nutq qobiliyatidir [Azimov, Shukin, 2009, 25-bet.][13]. E. I. Passov to'g'ri ta'kidlaganidek, tinglash qobiliyati - bu yangi vaziyatlarda yangi tovushli xabarlarini tushunish uchun eshitish qobiliyatini egallash qobiliyatidir [Passov, 1977, 167-bet].[7]

Ushbu dissertatsiyada biz eshitish qobiliyatini ma'lum bir kommunikativ natijasini amalga oshirishda chet el nutqini eshitish orqali tushunish qobiliyatini ta'minlaydigan nutq qobiliyatiga monand metod va dasturlar ishlab chiqishimiz ilgari surilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar tinglash qobiliyatlarini quyidagilarga qarab tasniflashadi:

- xorijiy tilni bilish darajasi;
- tovushli matnni tushunish darajasi;
- tinglab tushunish turi;
- tovushli matn turi;
- tovushli matnni tushunish jarayonida tinglovchining roli.

J. Richards [Richards, 1991, 198-199-betlar][39] tinglash turiga qarab mikroko'nikmalarning batafsil tasnifini (umuman tinglash bilan bog'liq 33

mikroko'nikma va tematik ma'ruzalarni tinglashda qo'llaniladigan 19 mikroko'nikma) ishlab chiqdi. J. Richardsning fikricha, umumiy tinglashning asosiy ko'nikmalariga quyidagi ko'nikmalar kiradi:

- Doimiy tovushlarni farqlay olish;
- So'z urg'usini to'g'ri tanlay olish;
- Chet tilining ritmik strukturasi to'g'ri tanlay olish;
- Nutqning axborot tuzilishini aniqlash uchun urg'u va intonatsiya funksiyalarini aniqlash;
- So'zning gapdagi urg'uli va urg'usiz o'rnini, ya'ni frazema urg'u vazifasini aniqlash;
- So'zlarning qisqartirilgan shakllarini aniqlash;
- So'z chegaralarini farqlash;
- Nutq qismlarini tushinib, ularni to'g'ri ang'lay olish;
- Mavzuga oid asosiy leksik birliklarni ajratib ko'rsatish;
- Kontekstga qarab so'zlarning ma'nosini taxmin qilish;
- Gap qismlarini va asosiy sintaktik tuzilmalarni bilish;
- Elliptik gaplarni tushunish;
- Asosiy ma'lumotni ikkilamchi ma'lumotdan ajratib olish;
- Muloqotning vaziyati, ishtirokchilari va maqsadlariga qarab nutqning kommunikativ funksiyalarini to'g'ri tinglay olish;
- Tasvirlangan hodisalar asosida natijani bashorat qilish;
- Audio matnda tasvirlangan hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Ma'ruzalarni tinglashda qo'llaniladigan mikroko'nikmalarga misol sifatida quyidagi mikro ko'nikmalarni ajratib ko'rsatamiz:

- a) Ma'ruza mavzusini aniqlash va mavzuning rivojlanishini kuzatish;
- b) Berilgan asosiy g'oyalar, farazlar, dalillar, misollarni aniqlash;
- c) Mantiqiy aloqaning nutq belgilarini tan olish;
- d) So'zlovchining mavzuga munosabatini ochib berish;

- e) ma'ruzada taqdim etilgan ma'lumotlarni turli xil ma'ruza shakllaridan foydalangan holda idrok etish va tushunish: og'zaki taqdimotda, audio yoki video yozuvda;
- f) ma'ruzada berilgan ma'lumotni aksent va bayon sur'atidan qat'iy nazar idrok etish va tushunish;
- g) Ma'ruzalarni taqdim etish uslublarini farqlash: rasmiy, so'zlashuv, o'qish.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tasnifdagi "kichik mahorat" tushunchasi eshitish - talaffuz va leksik-grammatik tinglash qobiliyatlarini, shuningdek, tinglash qobiliyatlarini qamrab oladi [J.S. Richards.1971.25-bet][40].

Tinglab tushunish qobiliyatlarini, grammatik va leksik tinglash qobiliyatlarini, shuningdek, monolog matnlarni, dialogik nutqni va dialogik muloqot jarayonida tinglashni idrok etish qobiliyatini ajratib ko'rsatishadi [K.L. Cameron .2005 22-bet][32]. D.H. Brown tinglash ko'nikma va malakalarini tasniflash mezonini sifatida tinglash maqsadini - matnning umumiy mazmunini tushunish, matnni tanlab tushunish va matnni to'liq tushunishni belgilaydi. "Tegishli malakaga ega bo'lgan audit maqsadlari bir-biriga to'laqonlik bog'liqlikda joylashgan bo'lib, bu yerda bir maqsad boshqa maqsadning tarkibiy qismi hisoblanadi" [D.H. Brown, 2008, 14-bet][14]. Biz N. L. Vandergriftning fikriga qo'shilamiz, ovozli xabarni tushunish darajasi tinglash qobiliyatlari va qobiliyatlarini ta'kidlashning asosiy mezonidir. Tinglab tushunishni o'rgatishning quyida uch bosqichli tizimli asosida tinglash qobiliyatlarini tasniflaymiz:

- Birinchi bosqichda tinglashning pertseptiv bazasini, ya'ni asosiy eshitish-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish sodir bo'ladi;
- Ikkinchi daraja nutq faoliyatining bir turi sifatida tinglashning asosiy ko'nikmalarini o'z ichiga oladi;
- Uchinchi bosqichda - chet tilida og'zaki muloqot - tinglovchi og'zaki muloqotning ishtirokchisiga aylanadi; [L.Vandergrift 2004.132-bet][10].

Tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarda sodir bo'ladi: nutqiy eshitish, leksik va grammatik



tinglash ko'nikmalarini shakllantirishdan tortib, matn mazmunini to'liq anglash va o'z fikrini ifoda etish qobiliyatiga qadar, tinglangan matnga nisbatan tanqidiy fikr bildirish kerakligi aytib o'tilgan. Tinglash ko'nikmalari va qobiliyatlarini tasniflashning yuqoridagi yondashuvlariga asoslanib, biz tovushli matnni tushunishning turli darajalarida o'quv tinglash ko'nikmalari va qobiliyatlarini ajratib ko'rsatamiz:

- 1) dasturetik idrok darajasida;
- 2) matnni umumiy tushunish darajasida;
- 3) matnni fokusli tushunish darajasida (I. Yu. Pavlovskaya atamasi);
- 4) matnni to'liq tushunish darajasida;
- 5) matnni tanqidiy tushunish darajasida.

Shunday qilib, o'quv tinglash ko'nikmalari va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish asta-sekin sodir bo'ladi - tinglashni o'rganishning har bir bosqichining uzluksizligi printsipi asosida idrok etish darajasidan matnni tanqidiy tushunish darajasiga qadar. Chet tilidagi nutqni eshitish orqali idrok etish va tushunish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida psixolingvistik jihat muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun eshitish qobiliyati va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bilan birga, nutqni eshitish orqali idrok etish mexanizmlarini shakllantirishga maqsadli e'tibor berish kerak. Bunday mexanizmlar, birinchi navbatda, diqqat, xotira va ehtimollik prognozi dissertatsiyamizning 3-bobida eshitish orqali nutqni idrok etishning turli mexanizmlari faoliyatini aks ettiruvchi malakalar keltirilgan.

Nutqni idrok etish mexanizmlarining ishlashini ta'minlaydigan ko'nikmalar tinglash uchun topshiriqlarni bajarishda strategiyalar va tinglash texnikasini ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Xorijiy tillari nutqini eshitish orqali qabul qilish va tushunish muvaffaqiyati nutqni idrok etish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liq bo'lib, ular o'z navbatida matnni tushunishning barcha darajalarida tinglashni o'rgatish bo'yicha vazifalarni bajarish jarayonida shakllanadi va takomillashtiriladi.

## **2.2. Tinglashni o'rgatish uchun mashqlar tizimi**

Bu yerda o'qituvchilar o'quvchilarga tinglab tushunishlarini yaxshilash uchun tinglash matnlarini yengishda qanday yordam berishi mumkinligi haqida turli xil o'qitish usullari jamlangan. Bulardan biz quydagilarni ko'rib chiqamiz.

**Oldindan tinglash**, ushbu bosqichda o'qituvchi talabalarning yuqoridan pastga ishlov berishini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli sxemalarni boshlashi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga tinglash uchun mo'ljallangan matnga aqliy tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan tinglash nutqlarini taqdim etishi kutilmoqda. Shuningdek, mavzuni taxmin qilish, matn masalalarini muhokama qilish va g'oyalarni chizish tinglash jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarning tinglash qobiliyatini oshirish uchun o'qituvchilar o'quvchilarni rag'batlantirishlari va ularning e'tiborini tinglash maqsadiga qaratishlari ham muhimdir. Talabalarning e'tiborini tinglash jarayoniga jalb qilish uchun o'qituvchi ularga tinglash maqsadini qo'yishi kerak, masalan, tinglash matnining mazmuni bo'yicha taxminlar qilish. Bu talabalarni matn bilan faol shug'ullanishiga yordam beradi.

**Haqiqiy materiallar**, ushbu bosqichda tinglab tushunish maqsadlarini hisobga olgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarni tushunish ko'nikmalari va tajribasi bilan yoritishlari kerak. Aynan o'sha paytda ular o'quvchilarni og'zaki nutq va tabiiy nutq xususiyatlari bilan tanishtirishlari kerak. Birinchi kurs tinglovchilari uchun bu oson bo'lmasada, manba matnni tinglashda qo'lingizdagi vazifani soddalashtirish ilhomlantiruvchi va hayajonli tajriba bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, talabalarga har bir so'zni tushunishlari kutilmasligini aytish kerak [Field 2008.126-bet][3].

**Diagnostik yondashuv**, ushbu bosqichda savollarni oldindan qo'yish va o'quvchilarning javoblarini sinab ko'rishning tushunish metodologiyasiga

murojaat qilib, tushunish savollarifaqat tinglash ko'nikmalarini sinab ko'rishini asoslaydi.

Ular ko'nikmalarni o'rgatishda yordam bermaydilar. Bundan tashqari, ushbu turdagi metodologiyada javoblar qanday olinganiga juda kam e'tibor qaratiladi. Shunga qaramay, [J. Siegel 2014.22-30-bet][8] tinglash darslarining aksariyatida tushunishga oid savollar juda foydali ekanligini kuzatdi. Bundan tashqari, Field (2008) tinglashda analitik yondashuvdan foydalangan holda, til o'qituvchilari javoblarga qanday erishilganligini tekshirib, tushunish qayerda to'g'ri javob bera olmaganini aniqlashlari mumkin va ular kelajakdagi yo'riqnomalarida bu o'z vaqtida o'zlashtirilmagan joylarga ko'proq e'tibor berishlari mumkin. Buning uchun biz nemis tili o'rganadigan o'quvchi yoshlarda tinglash strategiyalarini amalda tadbiq etishimiz maqsadga monand bo'lardi.

Tinglash strategiyalari odatda bilimlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan kognitiv, meta- kognitiv va ijtimoiy-affektiv strategiyalar deb ataladi, ular kam malakali talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Tinglovchilar o'z birinchi tillarida tanish bo'lgan strategiyalarni egallashlari va ulardan foydalanishlari va ularni ikkinchi yoki chet tilidagi tinglashga muvaffaqiyatli o'tkazishlari va moslashtirishlari kerak [Jones Beyond.2002.178-187-bet][28].

Hech qanday ikkinchi darajali ma'lumotlarning yo'qligi va o'qituvchilarga qo'shimcha mas'uliyat yuklanganligi sababli, strategiya va yondashuvlarni o'rgatish uchun ajratilgan vaqt talabalarni tinglash matnlariga o'rganish amaliyotini o'rgatishda ishlatilishi mumkin. [Renandya va Parveva 2011].[28;36] Tinglab tushinishda kichik ko'nikmalar va intensiv tinglashning o'rni kattadir. Quyi ko'nikmalar mahalliy tinglovchilar tabiiy ravishda zavqlanadigan va ikkinchi tilni o'rganuvchilar o'rganayotgan tilda malakaga erishish uchun o'rganishlari kerak bo'lgan qobiliyatlar sifatida qabul qilinadi. Boshqa tomondan, bu yondashuvlar juda foydali va o'quvchining tinglash qobiliyati yaxshilangani uchun ham bu e'tiqod shuni anglatadiki, uzoq vaqt

davomida yaxshilanish uchun tinglovchilar kuchliroq tinglash ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Asosan to'g'ri fikrlash va to'g'ri gapirish uchun uchta soha ko'nikmalarini rivojlantirish kerak:

- tinglash turlari;
- suhbatning tuzilishi;
- tinglash texnikasi;

U til o'rganuvchilarga tinglash matnida nima bo'lishini oldindan bilish, minimal juftlarni tasniflash va uchta asosiy fikrni tan olish qobiliyatini yaxshilashga yordam berish uchun nota amaliyotini rag'batlantiradi.

Tinglash uchun materiallar: Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslanib, o'qituvchi talabalarning tegishli oldingi bilimlarini faollashtirishi, ularga har bir so'zni tushunish kerak emasligini bildirishi va tinglash matnini tushunishga yordam beradigan vazifani soddalashtirishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki matnini tushuna olmaganlarida xafa bo'lishlari va tushkunlikka tushishlarini oldini olish uchun oson mavzulardagi kichikroq original tinglash matnlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Talabalar shuningdek, veb-saytlarda taqdim etilgan resurslarning to'liq ro'yxatini tayyorlashga yo'naltirilishi va ularni qidirishga o'rgatishlari kerak. Bu borada asosiy e'tibor o'quvchilarning ishtiyoq darajasini oshirishga doimiy harakat qilish, ularning ona tilining turli jihatlari, masalan, to'xtash va tuzatishlar haqidagi bilimlarini mustahkamlashga qaratilishi kerak. Talabalar tinglashni mashq qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qisman original matnlardan foydalanishlari mumkin. Talabalar tinglab tushunish qiyin va qiyin mahorat ekanligini bilib olishlari mumkin. Aynan shu bosqichda o'qituvchilar o'zgarishlarga ta'sir qilishi va qiziqarli va samaraliroq bo'lgan tinglash mashqlarini o'ylab topishi kutiladi. Tinglash vazifalari darslik o'quvchilarning qiziqishini qo'llab-quvvatlaydigan va tinglash uchun turli maqsadlarni taklif qiladigan turli xil vazifalarni taqdim etadi. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalarga ushbu vazifalarni osonlashtirish va ularning tashvishlarini kamaytirish uchun qo'shimcha mashqlar bilan ta'minlaydi, ularga topshiriqlar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga

imkon beradi. Talabalar ma'lum lug'at ustida ishlashadi va keyin ularga keng ko'lamli, inklyuziv ma'no uchun tinglash bo'yicha mashg'ulotlar taqdim etiladi. Global ma'noni tinglash texnikasi bilan haqiqiy materiallarni qo'llash talabalarda moddani, yadroni tinglash, ma'no va mohiyatni tushunish qobiliyatini rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin. Talabalarga matnni ko'p marta tinglash, lekin har safar turli xil, bir-biriga o'xshamaydigan vazifalar ustida ishlash kabi tafsilotlarni va mazmuni tinglash imkoniyatini beradigan yana bir usul ishlatilgan. Talabalar keyinchalik tinglash uchun real hayotiy vaziyatlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan turli xil javoblarni shakllantirishlari mumkin, chunki bu an'anaviy tushunish savollariga qaraganda foydaliroq va samaraliroq bo'ladi [Reinke 2014.168-bet][38].

**Keng qamrovli tinglash strategiyalari**, ushbu bosqichda talabalarga qo'shimcha mashg'ulotlarni onlayn tarzda taqdim etish yoki ularga o'yin-kulgi uchun topshirish biroz jozibali taklif yoki reja bo'lib tuyulishi mumkin, chunki individual talaba tekshiruvdan o'tmasligini ko'rib, o'zini kamroq bezovta qiladi va shunchaki dam olishi va zavqlanishi mumkin. uning tinglovchi nutqlari bilan uchrashishi. Shunga qaramay, keng ko'lamli tinglash matni ko'p vaqt va boshqa majburiyatlarni talab qiladi va darslarga ajratilgan vaqt etarli bo'lmaydi. Shu sababli, talabalar ushbu mashg'ulotlar uchun darslarida vaqt ajratishlari yoki bo'sh vaqtlarida uyda qilishlari mumkin. Dastlab, o'quvchilar darsda qisqa, tanish va oddiy matnlarni o'yin- kulgi uchun tinglashlari kerak, keyin ularni uyda ko'proq ishlashga undash mumkin. Ushbu qo'shimcha faoliyat, masalan, hujjatli filmlar seriyasi yoki film klipi kabi shaxsiy qiziqishlariga mos kelishi mumkin.

Hech shubha yo'qki, tinglash ko'nikma sifatida mustaqil bo'lolmaydi va darslar tinglash ko'rsatmalaridan iborat bo'lolmaydi va talabalar boshqa ko'nikmalarni egallashlari va tushunishlari kerak. Foydali o'quv materiallarini moslashtirish tinglashni o'rgatish jarayonini, shuningdek, boshqa ko'nikmalarni (o'qish, gapirish va yozish) yaxshilashi mumkin. Taqdim etilgan adabiy manbalarga ko'ra, turli xil tinglash faoliyatini amalga oshirishni taklif qilish

mumkin.


Biz magistirlik dissertatsiyamiz yuzasidan olib borgan tadqiqotimiz davomida nafaqat tajriba guruhlar uchun audiomateriallardan, AKT dan, balki tarqatma materiallardan, metodlardan va oyinlardan foydalandik. Bu esa nemis tili organadigan yoshlar uchun tinglab tushinish qobiliyatini shakillantirish uchun muhim omil bolib xizmat qiladi. Biz o'quvchilar bilan birgalikda „Mein Schultag“ mavzusi yuzasidan so'zlar o'yinini tashkil qildik. Bunda o'qituvchi so'zlarni ketma ketlikda aytadi, o'quvchilar so'zlarni tinglab, ular ham tinglash orqali so'zlarni qay darajada to'g'ri aytishlari nazorat qilinadi.

A

#### ■ Savol va javob

---

*der Klebstoff • der Kuli • die Brille • das Deutschheft • der Radiergummi • der Filzstift - der Spitzer • das Handy • der Bleistift • das Buch • das Lineal • das Mappchen • das Matheheft • das Englischheft • die Schere • der Fuller • die Uhr • die CD*




**2.1-rasm. Tinglab tushinish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar**

#### ■ savol va javob

---

*die Brille • das Buch • der Kuli • das Deutschheft • der Fuller • der Filzstift •*

*das Handy • der Spitzer • der Klebstoff • das Englischheft • das Lineal • das Mappchen • das Matheheft • der Radiergummi • die Schere • die Uhr • die CD • der Bleistift*



## 2.2-rasm. Tinglab tushinish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar

### 1. Spiel „Wer bin ich?“



## 2.3-rasm. Tinglab tushinish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar

Jeder Schuler bekommt einen „Steckbrief zum Ausfüllen. Teilen Sie Ihre Klasse in Gruppen mit sechs bis acht Schulern. Jeder Schuler bekommt einen „Steckbrief“ und füllt ihn aus. Ein Schuler aus der Gruppe sammelt die Blätter ein, mischt sie und legt sie in einen Karton. Ein anderer Schuler zieht ein Blatt aus dem Karton und liest bis zu der Frage „Wer bin ich?“ vor. Die anderen

raten, wer das Blatt ausgefüllt hat. Dann zieht der nächste Schuler ein Blatt aus dem Karton, liest vor, die anderen raten u.s.w. Der Schuler, der richtig geraten hat, bekommt einen Punkt. Gewonnen hat der Schuler mit den meisten Punkten.

*„Steckbrief“*

*Ich finde gut.*

*Ich finde doof.*

*Ich gern.*

*Ich nicht gern.*

*Wer bin ich? Ich bin.*

## **2.Gegenstände raten.**

Ein Spieler hören sich einen Gegenstand aus und notiert. Die anderen sollen mit 11 Fragen den Gegenstand erraten. Es handelt sich nur um Entscheidungsfragen, die man nur mit ja oder „nein“ beantworten kann. Wer als erster den Gegenstand richtig nennt, ist der Spielführer und soll sich den nächsten Gegenstand ausdenken. Um das Spiel zu erleichtern, kann der Sachbereich des zu erratenden Wortes angegeben werden, z.B. Schulsachen, Freizeit, Unterrichtsfächer usw.

## **3.Spiel „Pantomime - Raten“**

Ein Spieler stellt ein Hobby dar, die anderen raten.

- Was für ein Hobby ist das? Ist das Reiten?
- Nein
- Ist das Radfahren?
- Ja, das ist Radfahren.



#### 4.Partner – Hörspiel „Was hast du?“

Montag, 2. Stunde, Musik	Freitag, 3. Stunde Audiotext
--------------------------------	------------------------------------

Immer zwei gleiche Zettel schreiben. Zetteln einsammeln und anders verteilen. Durch die Klasse gehen und Partner suchen.

- Ich habe am ... in der .... Stunden ...Was hast du?
- Ich habe auch ...
- Super!

Kontrolle nach dem Spiel:

- Lena hat am Montag in der zweiten Stunden Musik
- Richtig!

#### 5.Im Audiotex hören wir das Partnerinterview.

Dieses Spiel wird in Paaren durchgeführt. In einer vorher vereinbarten Zeit z.B. 5 min. versucht jeder der beiden Partner so viel wie möglich von seinem Partner zu erfahren. Dann soll er im Plenum die Ergebnisse seines Interviews vorstellen z.B. 1-min. dabei kann das Plenum Zusatzfragen stellen. Die Schüler können auch eventuell fiktive Rollen übernehmen - historische Figur, bekannte Person.

### **2.3. Tinglab tushinishni o'rgatishda texnik vositalar, videolar bilan tinglashni o'rganish tizimi.**

Magnitodastur yozuvlarini tinglab tushunish haqidagi masala alohida ko'rib chiqilishi lozim. Magnitodastur yozuvidagi biror shaxsga qaratilmagani uchun uni tushunish ancha qiyinlik tug'dirishi sababli tinglab tushunishning bu turini ta'limning faqat o'rta bosqichida amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi fikr metodikada uzoq vaqt saqlanib keldi. Hozirgi vaqtda bu fikr rad etilgan. Tinglab tushuniladigan matnlar oldindan yaxshi ishlab chiqilgan material asosida tuzilsa va o'quvchilar bilan magnitodasturdan foydalaniladigan mashqlar olib borilsa, magnitodasturga yozilgan nutqni tinglab tushunishni V sinfdan bemalol boshlash mumkinligini ko'rsatdi. Aslida magnitodastur yozuviga ilgariroq murojaat qilish o'quvchilarni ekstralingvistik momentlarga tayanmasdan turli tovushlarning farqini ajratishga o'rgatish imkonini beradi. Tadqiqotlardan ko'rinishicha, magnitodastur yozuvidan foydalanishni mumkin qadar vaqtliroq o'rgatish kerak, chunki bu ishni kechiktirish o'quvchilar uchun turli kishilar nutqini idrok etishni qiyinlashtiradi. Chunki ular gapirayotgan odamning tovush tembri va shaxsiy xususiyatlariga haddan tashqari o'rganib qoladilar, ularda tinglash obrazlarning qandaydir individuallashtirilgan varianti shakllanib qoladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar va talabalarda tinglab tushunish gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O'quvchi o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p ma'lumot olarkan, sababi uni ustida kam ishlanganidadir, murakkabligidadir. Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. U gapirishni ajralmas qismidir. Tinglab tushunish bilan gapirish ikkalasi og'zaki nutqni tashkil qiladi. Tajribalar ko'rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, o'quvchi ayniqsa dialogda yaxshi qatnasha oladi. Tinglab tushunish orqali ham, o'qish orqali ham ma'lumot qabul qilinadi, shu sababdan ikkalasi ham retseptiv nutqlardir. O'quvchi to'g'ri o'qigan, talaffuz qilgan so'zlarni tezda qabul qilib

taniydi va tushuna oladi. U o'zi to'g'ri o'qiy olmasa, talaffuz qila olmasa, so'zlarni tinglaganda taniy olmaydi, mazmunni tushunmaydi. O'quvchi va talaba yozganda ham so'zlarni, gaplarni to'g'ri o'qiy olsa, talaffuz qila olsa, yoza oladi, bu ham tinglab tushunishga yordam beradi. Hamma o'quv yurtlarida tinglab tushunishni o'rgatish ham vosita, ham maqsaddir. U vosita bo'lganda til materialini og'zaki o'rgatish, tushuntirishda boshqa nutq faoliyatlarini o'rgatishda, vositachilik qiladi, maqsad bo'lganda esa, nutqni tinglab ma'lumot olish ko'zda tutiladi. Tinglab tushunishning eng asosiy maqsadi, vazifasi, tanish til materiallari asosida tuzilgan notanish mazmunli matnni, nutqni tinglab tushunishdir. O'rta maktab chet tili dasturida tinglab tushunish bo'yicha har bir sinf uchun talablar belgilangan.

Xorijiy tillarni tinglab tushunishning qiyinchiliklari va xususiyatlari  
Tinglab tushunishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Ular 2 ta ekstralingvistik va lingvistik qiyinchiliklardir.

#### **Ekstralingvistik qiyinchiliklarga:**

1. Tinglayotgan nutq mexanik nutq bo'lishligi. Fo nogrammadan, videodasturogrammadan nutqni tinglashlik;
2. So'zlovchining o'zidan jonli nutqni tinglashlik;
3. Nutqning tembri;
4. Nutqning tezligi;
5. Nutqning kimgadir, nimagadir qaratilgan bo'lishligi;
6. Tinglayotgan sharoit, vaziyat, sinfda o'quvchi, talabalarning intizomi, shovqini, ularning ko'p-kamligi;
7. Nutq ehtiyoji bo'lishi;
8. O'quvchi, talabaning diqqati;
9. Nutqning bir yoki bir necha marta tinglanishligi;
10. Tinglab tushunishda tayanch vositalarning, mazmunli rasmlarning bo'lishligi kiradi.

#### **Lingvistik qiyinchiliklar:**

1. Nutqning monolog, dialog shaklida bo'lishligi;

2. Dasturetik qiyinchilik, so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishi;
3. Leksik qiyinchilik, so'zlar tanish, ko'p ma'noli bo'lishligi, konversiya;
4. Grammatik qiyinchiliklar-zamonlar, grammatik shakllar, gap tuzilishlarning tanish bo'lishligi;

Grammatik qiyinchiliklar tushunishni qiyinlashtiruvchi va qiyinlashtirmaydigan bo'ladi. Sifat qo'shimchalari, fe'llarning shaxs qo'shimchalari tushunishni qiyinlashtirmaydi. Zamonlar, so'roq gaplar, gaplarni sintaksis tomondan murakkabliklarini tushunishni qiyinlashtiradi. Nutqni umumiy mazmunini tushunishga leksik qiyinchiliklar ta'sir qiladi.

5. Stilistik qiyinchilik.,bunda asosan utqni sheva yoki adabiy tilda bo'lishligi.

Nutqni sheva yoki adabiy tilda bo'lishligi va yana xorijiy tilda nutqni tinglab tushunishda ham quyidagi qiyinchiliklar uchraydi;

1. Dasturetik qiyinchiliklar qarama-qarshi tovushlarni tinglab farqlashda uchraydi.

2. Leksik qiyinchiliklar: O'quvchilar so'zlarni tinglab noto'g'ri tushunadilar, bunga sabab ularni noto'g'ri eshitishlaridir deydi.

Bu qiyinchiliklar dasturetika bilan bog'liq. O'quvchilar gaplarini noto'g'ri eshitish orqali noto'g'ri tushunadilar.

3. Grammatik qiyinchiliklar. Bu qiyinchiliklar nemis tili analitik til ekanligidan kelib chiqadi deydi.

*Masalan:* Tinglab tushunishni o'rgatishning mazmuni deganda tinglab tushunish bo'yicha nimalarni va nimalarga o'rgatish ko'zda tutiladi. U o'rta maktab chet tili dasturida har bir sinf uchun belgilab berilgan.

Yuqoridagi tinglab tushunishni o'rgatishning mazmunni 3 qismga bo'lamiz.

- 1.Lingvistik qism,bunga til va nutq materiali kirgiziladi;
- 2.Psixologik qism, bunda ovozli nutqni tinglash, tushunish malaka, ko'nikmasiga erishtirishdir.

3. Metodik qism, bunda o'quvchilarga tinglash, tushunish yo'l-usullarini o'rgatish, hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali uni qonun-qoida, tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o'rgatish aniqlanadi.

O'quvchi nutqni tinglaganda asosiy vazifa: tanish leksik, grammatik, dasturetik materiallar asosida notanish mazmunli nutqni tinglab, nutq vaziyatidan foydalanib, yangi ma'lumot olish, notanish mazmuni tushunish vazifasi turadi. Yuqori sinflar uchun qisman notanish so'zlar tinglanayotganda fahmlab tushunishga qoldiriladi.

Ko'tarilgan nazariy va amaliy masalalar qatorida chet tilida tinglab tushunish metodologiyasi, kommunikativ kompetentsiya muammosi va unga erishish yo'llari eng dolzarb yo'l hisoblanadi. Umuman olganda, kommunikativ kompetentsiya deganda qobiliyat tushuniladi, chet tilida tinglab tushunish orqali talaba uchun dolzarb muammolarni hal qilish, kundalik, o'quv, ishlab chiqarish, hayotiy davomida muloqot qilish, talabani qobiliyati muloqotni amalga oshirish uchun til va nutq faktlarini tushunish uchun tinglab tushunish kompetensiyasining roli kengdir. Tinglovchi talaba, agar u tinglab tushunish sharoitida bo'lsa, kommunikativ kompetensiyaga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kontekst muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi, ravon tilda so'zlashuvchi bilan tinglab tushunish va o'zaro munosabatini ushbu til madaniyatining me'yor va an'analariga muvofiq amalga oshiradi. [Azimov 2009: 98-bet][13]. Xorijiy tilning kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lmagan kishi, o'sha davlatning o'rganilayotgan tili va o'sha mamlakatda bo'lish, u uchun juda qiyin. Shuning uchun ham tinglab tushunish davrida haqiqiy va xayoliy vaziyatlarni yaratishda chet tili darslarida muloqot qilish, turli xil metodlardan foydalanish usullarini o'rgatishda o'qituvchining vazifasi muhimdir. Bunda asosan videofilmlar orqali tinglab tushunish mashg'ulotlaridan o'z o'rnida foydalanish kerak. [D.H Brown 1997: 5t-be][14].

Ma'ruzachini eshitishda xorijiy nutqni idrok etish va tushunish, uning yuz ifodalarini, imo-ishoralarini, umuman tashqi ko'rinishini tasavvurda qanday holatdagiligini tushunib yetishimiz kerak. Buning uchun biz nafaqat bir vaqtning

o'zida tinglashimiz, balki tasavvur tushunchamizni ham o'z o'rnida qo'llay olishimiz kerak. Trening sharoitida biz suhbatdoshni qachon ko'ramiz to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali ko'rishimiz mumkin, lekin haqiqiy materialni tinglashda vizual aloqa yo'q. Video bizga haqiqiy nutq va so'zlovchining atrofida vizual tarzda idrok etish muhitida tinglash imkonini beradi. Bu tinglashning haqiqiy shartlariga yaqinlashtiradi. Axborotni idrok etish va qayta ishlash va uni eshitish shaklida mujassamlanadi. Tinglab tushunish metodologiyasida butun yo'nalishning asosini vizual sintez tashkil etadi, ular asosan chet tillarini o'rgatish va yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi va chet tillarini o'qitishning audiovizual metodini ishlab chiqishini ta'minlaydi.

Tinglash jarayonlarini o'rganish tajribasi shuni ko'rsatadiki, matnni vizual holda ikki marta tinglash, tinglab tushunish darajasining samarasini yuksaltiradi. Video materiallardan iborat hujjatni ko'rish, bir martalik tinglab tushunishdan ko'ra sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Umuman olganda, videoni ko'rish, video yordamida tinglash jarayoni bir biridan sezilarli darajada farq qiladi, ortib borayotgan motivatsiya, katta vaziyat va muloqot yuqori darajadagi ravshanlik va natijada axborot mazmuni va boshqalar oson tushunishlari uchundir. [V. A.Krutetskiy, 2011: 109-bet][30].

Biz videoning sanab o'tilgan xususiyatlari va afzalliklarini ochib beramiz tinglashni o'rganish vositalari orqali ochib beramiz:

-Videoni tomosha qilishda bir vaqtning o'zida ikkita analizator ishtirok etadi -vizual va eshitish, ya'ni talaba ko'proq narsani audio yozuvni tinglash orqali oladi. Til tuzilmalarini yodlash, so'z boyligini kengaytirish va rag'batlantirish nutq va uni tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishda vizual diapazoni yaxshiroq qilish imkonini beradi [N.K.Atalayeva.2011: 195-bet][12].

-Video filmlar motivatsiyani uyg'otishi uchun amalga oshirishda muhim rol o'ynaydigan funktsiyalardan biridir:

birinchidan, birgalikda mavjudlik, empatiya ta'siri tufayli ekranda ko'rsatilgan hodisalarni kuzatish;

ikkinchidan, tinglash natijasida o'quvchilar o'quv uslubiy muammolarni

muvaffaqiyatli mustaqil hal qilish;

Audio vositalar orqali tinglab tushunish samarasi balandroqdir, bu talabanning tilni tushunishi bilan erishiladigan tadqiqotlar va eshitish davomida anglab yetish kompetensiyasini samaradorligini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. [M.B Yevistifeyeva 2011: 109-bet][19].

Video filmdan foydalanish turli jihatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Nafaqat o'quvchilarning aqliy faoliyatini, balki ularning diqqat va xotiralarini yaxshilashga yordam beradi. Auditoriyada video filmlarni yoki bo'lmasa audiovisual vositalarni tomosha qilish orqali qo'shma kognitiv muhit orqali hatto e'tiborsiz talabani ham diqqatini tortsa bo'ladi. Film mazmunini tushunish maqsadida talabalar biroz harakat qilish kerak. Xotiradan tashqari, tinglab tushunish paytida jamlangan fikr ham tinglashning boshqa mexanizmlarini faollashtirishga yordam beradi [A.P.Golubev2011: 196-bet][25].

Videoning yana bir aniq afzalligi – bu tinglab tushunish paytida ularning axborotni intellektual salohiyatlariga tezda idrok etish darajasiga ta'sir ko'rsatishi yuqoriroqdir. Shuning uchun ham o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirishga e'tibor berishi, ko'rgan narsasiga munosabat bildirishi va ularni o'z navbatida rag'bantlantirishi o'qituvchining muhim vazifasidandir. [I.D.Salitra. 1997: 6-bet][26].

Video muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U tarix, madaniyat, an'analar va o'rganilayotgan til mamlakatining hayot tarzini o'rgatadi [M.N.Goncharova.2010: 110-bet][23]. O'qitishning audiovizual usuli samarali bo'lishi uchun o'qituvchi haqiqiy video materiallar tanlash orqali kerakli mezonlariga to'g'ri yondashishi kerak [R Lado 1957: 72-73-bet][33]:

Video lingvistik materialni o'z ichiga oladigan kerakli o'quv maqsadlariga ko'ra tanlanadi, video, ovoz va badiiy sifat, badiiy qiymatini yanada kuchaytiradi [S.Puntambekar 2011: 194][35].

Videoni uyda tomosha qilishdan farqli o'laroq, auditoriyada ko'rish television dasturlash jarayonini faollashtiradi, tashkilotchi va tashabbuskorlikni oshiradi. Video material bilan ishlash, shuningdek audio materiallar bilan

ishlash asosan uch bosqichni o'z ichiga oladi:

- oldindan namoyish qilish (oldindan ko'rish);
- demo (ko'rish paytida);
- post-demo (ko'rishdan keyingi);

Birinchi bosqichning maqsadi, Oldingi bosqichda talabalarni rag'batlantirish, matnni to'g'ri tinglay olish va uni tushinish, talabalarni tinglab tushinish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar olib tashlash kerak, ushbu matn yuzasidan tushincha hosil qilinmagan savollar orqali topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish kerakligi nazarda tutilgan.

Ikkinchi bosqichning maqsadi, o'quvchilar audio matn mazmunini tushunishlari ularning nutqiy-kogitativ faoliyatini faollashtiradi.

Uchinchi bosqichda, talabalarning nutq ijodiy faoliyati tashkil etiladi [P.R. Mandel 2021: 338-bet][34].

Shunday qilib, videofilm samarali vositadir, chet tili darslarida tinglashni o'rganish, videofilmlar ko'rish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradigan jarayondir. Tinglovchilarning so'z boyligini kengaytirish va o'quvchilar e'tiborini rivojlantirish, va maktab o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Tinglash nutq faoliyatining mustaqil turi, umumiy ma'noda nutqni eshitish orqali idrok etish va tushunish jarayonini bildiradi. Nutqni tinglash jarayoni aqliy tizimlarning mashaqqatli ishdir. Tinglash jarayoni psixologik nuqtai nazardan quyidagi mexanizmni ifodalaydi:

- 1) nutqni idrok etish jarayoni;
- 2) tan olish jarayoni;
- 3) tushunish jarayoni.

Tinglashning asosiy mexanizmlar – nutqni to'g'ri eshitish, xotira, ehtimollik mexanizmi, bashorat va artikulyatsiya.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tinglash eng ko'p nutq faoliyatining qiyin turlaridan biridir va u bilan talabalar ko'p muammolar va muvaffaqiyatsizliklar uchraydi, biroq bunda to'sqinlik qiladigan hodisalarni o'z vaqtida tahlil qilinishi



nutqni eshitish orqali uni to'g'ri idrok etishga zamin bo'loladi hamda materialni to'g'ri tanlash imkonini beradi. Tinglashni o'rgatish va tizimni ishlab chiqish uchun o'quvchilarda uchraydigan qiyinchiliklarni qanday yengish kerakligini o'rgatish uchun mo'ljallangan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida videomateriallardan foydalanish tillar ta'lim jarayonining faollashuviga hissa qo'shadi va maktab o'quvchilari uchun kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda qulay sharoitlar yaratadi. Video bizga haqiqiy nutqni tinglash imkoniyatini beradi va so'zlovchini va uning atrofini vizual tarzda idrok etish. Bu bizni tinglashning haqiqiy tinglash sharoitiga yaqinlashtiradi. Audit jarayoni videoga tayanish motivatsiyaning sezilarli darajada oshishi bilan ajralib turadi, ko'proq kommunikativ vaziyatli va yuqori daraja ko'rinish natijasida ma'lumot mazmuni osonroq tushuniladi.

O'qitishning audiovizual usuli samarali bo'lishi uchun o'qituvchi haqiqiy video materiallarni aniq tanlashi hamda mezonlar asosida to'g'ri yondashish kerak. Video kerakli tilni o'z ichiga oladi va o'quv maqsadlariga muvofiq material tanlangan. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qiziqarli mavzuli bo'lishi, ularning amaliy tilni yanada bilish darajasini yaxshi bo'lib takomillashishiga xizmat qiladi.

## **II bob bo'yicha xulosalar**

1. Muloqotda, o'zaro fikr almashuvga o'rgatish ustivor yo'nalish kasb etayotgan hozirgi sharoitda maktablarda, oliy o'quv yurtlarida chet tillarini tinglab tushunishga o'rgatish mashg'ulotlarini kommunikativlik prinsiplari asosida tashkil qilish, uning metodik texnologiyasini ishlab chiqish, o'quv dasturlari rejasiga uni aloxida dars bosqichi sifatida kiritish, muloqotga o'rgatishning bu turi bo'yicha baholash mezonlarini aniqlash zarurati ilgari surilmoqda.

2. Tinglab tushunishni o'rgatish mashg'ulotlari talabalarda muayyan o'quv materialini bo'yicha grammatik, leksik, persektiv (idrok qilingan) ko'nikma va malakalar shakllantirilgach tashkil qilinadi. Bunday tizimga rioya qilmaslik eshitiladigan nutqning dasturetik, grammatik, leksik qonuniyatlarini idrok qilmaslikka, natijada eshitiladigan axborotni butunlay tushunmaslikka olib keladi.

3. Tinglab tushunish ko'nikma va malakalarini shakllantirish talaffuz, leksik, grammatik ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

### **III BOB. TINGLAB TUSHINISH KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA TAJRIBA SINOV ISHLARINI O'TKAZISH METODIKASI.**

#### **3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari.**

Nemis tilidagi nutqni tinglab tushunishni o'rgatishni 2 ta katta bosqichga bo'lib olamiz.

##### **I-bosqich. Tayyorlov bosqichi.**

O'qituvchi tinglab tushunish mavzusini tanlaydi va uni asosida nutqni, matnni tayyorlaydi. Tinglab tushunish uchun tayyorlangan nutqdagi, matndagi notanish tovushlar, so'zlar, grammatik materiallar o'rgatiladi. Tovushlar va sintagmalarni, gaplarni qabul qilish, taniy olish, farqlash, tushuna olish malaka ko'nikmalari shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Tinglab tushunish mavzusi, nutq matni uchun zarur bo'lgan mexanizmlar o'rgatilib, asosiy bosqichga tayyorlanadi.

O'qituvchining o'quvchilarga nemischa topshirig'i yoki buyrug'i, savollari, ularni o'quvchilarga bajartirishi, javob berdirishi, o'quvchilarning o'zlarining nutqlari uchun yuqoridagi malakalar, ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi. O'qituvchi uzun-qisqa tovushlarni farqlash, gaplarni ma'noli qismlarga ajratish, ularni tushunish, xotirani rivojlantirish mashqlar o'tkazadi. Bu bosqichda 2 yoki 3 ta jumladan iborat mikronutqni tinglab qabul qilish, tushunish, xotirada saqlash uchun malaka ko'nikmalari hosil qilinadi.

Ular asosan 5-sinf bosqichida o'rgatiladi. Bular esa qolgan sinflarda tinglab tushunish ustida ishlashni rivojlantirishga zamin bo'ladi. Bularsiz 6-9-sinflarda tinglab tushunishni rivojlantirish, kengaytirish mumkin emas. Ularni xatlab, tashlab ketib bo'lmaydi. O'qituvchi bularga ahamiyat berishi zarur. Bular tinglab tushunishning asosini tashkil qiladi. O'qituvchi bu malaka,

ko'nikmalarni yaxshi shakllantira olsa, keyinchalik tinglab tushunishni rivojlantirish osonlashadi.

**II-bosqich. Asosiy bosqich,** bunda mavzu asosida tuzilgan mazmunli, davomli notanish monologik, diologik nutqni tinglab tushunish, talqin qilish, malaka ko'nikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Tinglab tushuniladigan matnning mazmuni o'quvchi yoki talabaga tanish bo'lmasligi kerak. Aks holda ular uchun tinglab bajaradigan vazifa qolmaydi. O'quvchi yoki talaba matnni tinglab tushunayotganda matnga qarab, ko'rib turishi tavsiya etilmaydi, chunki unda tinglab tushunish sodir bo'lmaydi. Bizga ma'lumki, tinglab tushunishni talabi, sharti, faqatgina tinglab tushunishdir, matnni tinglab, ko'rib tushunish emasdir.

Bu bosqich quyidagi ketma-ketlikda o'tkaziladi:

1) tinglab tushunishni o'tkazishga tayyorlanish, bunda o'qituvchi o'quvchilarning yoki talabalarning yoshi, bilimi, sinfi, o'rgangan materiallarini hisobga olib matn, nutq tayyorlaydi, ya'ni matn tuzadi. Ularda notanish leksika, grammatika, notanish shaharlarning nomlari bo'lsa oldindan talaffuzini, o'qilishini, ma'nosini o'rgatadi. 3 tagacha so'zlarni tarjimasini, joy, shaharlarning nomini doskaga yozib qo'yilishi xato bo'lmaydi.

Bular asosan birinchi bosqichda bajariladi. Matnni o'quvchi yoki talaba tinglab tushunayotganida uchraydigan lingvistik qiyinchiliklarni aniqlash, ularni yo'qotish yo'llarini topish, tinglash vositalari (texnik, tinglash va ko'rish vositalari hamda boshqalar) ni oldindan tayyorlash zarur. Dasturogramma bo'lsa eshitib tinglab ko'rish kerak.

2) Tinglab tushunishni o'tkazish, uni quyidagi metodik ketma-ketlikda o'tkazish mumkin:

A. Matnda yoki nutqda notanish so'z tarjimasini, joylarning nomlari, ismlari bo'lsa doskaga yozish va o'qitish.

B. Tinglatish. O'quvchilarning diqqatlari tinglashga qaratilgan bo'lishi zarur. O'qituvchi so'zlashi, matnni, nutqni o'qib berishi, dasturogrammadan tinglatishi mumkin.

O'quvchilar nutqni me'yordagi tezlikda bir marta tinglaydilar. Tinglab tushunishdan oldin ularga quyidagi vazifalar beriladi:

- a) tinglang, mazmuni tushuning;
- b) tinglang, savollarga javob bering;
- c) tinglab, mazmuni tushunib, uni o'zbekcha yoki xorijiycha bayon qiling;
- d) matnga mazmuni bo'yicha yangi sarlavxa qo'ying;
- e) so'zlashga reja tuzing kabilar.

Bu topshiriqlar-vazifalar, savollar, 6-7-sinflarda tinglashdan oldin, 8-9sinflarda tinglash paytida, 10-11-sinflarda esa tinglashdan keyin berilgani ma'quldir.

Talab bo'yicha o'quvchi, talaba bir marta tinglaganda tushunishi kerak. Tinglab tushunishni o'rgatishni boshlashda, ba'zi vaqtlarda, ba'zi sabablarga ko'ra ikki marta tinglatish zarar emas, lekin oxirgi maqsad bir martada nutqni tinglab tushunish bo'lishi zarur.

Tinglangan matn mazmunini tushunganlikni tekshirish. Mazmunini, ma'lumotni tushunganlikni tekshirish yuqoridagi berilgan mashqlar, vazifalarni bajarilishi orqali amalga oshiriladi.

Tekshirishda yana quyidagi mashqlar qo'llaniladi:

- 1) Tinglangan matnni, nutqni birinchi abzasini (o'zbekcha yoki nemischa)gapirish;
- 2) Matnni davom ettirib tugatish;
- 3) Matndagi faktlarni aniqlash;
- 4) Matnni reja bo'yicha qismlarga ajratish;
- 5) Savollarga xorijiy tilda yoki o'zbekcha javob berish;
- 6) Matn mazmunini xorijiy tilida yoki ona tilida so'zlab bering kabilar.

Berilgan mashqlar tinglashdan oldin yoki keyin berilishi mumkin. O'qituvchi tinglangan nutq matn mazmunini tushunganlikni tekshirishda bu mashqlarning bittasidan foydalanadi. O'quvchilar yoki talabalarga mazmuni nemischa so'zlatish, gapirtirish shart va majburiy emas, bu tinglab

tushunishning maqsadiga kirmaydi. Uning maqsadi tinglab yangi mazmuni tushunish, ma'lumot olishdir. Nemischa tushungan mazmuni so'zlatish-texshirish mashqlaridan biri xolos, agar o'quvchilar, talabalar xorijiycha mazmuni, ma'lumotni tushunganliklarini so'zlasalar, o'qituvchi ham mazmuni tushunganlikni tekshiradi, ham xorijiy tilida gapirishni rivojlantiradi.

O'qituvchi tinglangan matn, nutq asosida o'quvchilar yoki talabalarni fikrlatishga o'rgatadi, mazmuni ularning bilimlari, mustaqil fikrlashi asosida kengaytiradi, muallifning matn mazmuni orqali nima demoqchi, aytmoqchi bo'lgan fikrini talqin qildiradi, tarbiyaviy maqsadni amalga oshiradi.

Lekin shunga qaramay tinglab tushunishni o'rgatishni to'rt bosqichda amalga oshirish qabul qilingan:

- 1- bosqich, Tinglab tushunishga o'rgatishga mo'ljallangan shartli kommunikativ mashqlarni bajartirish mashqlari (tayyorlov mashqlari);
- 2- bosqich. Tinglab tushunishga o'rgatishga muljallangan kommunikativ mashqlarni bajartirish (fikir almashuv, kommunikativ mashqlar):
- 3-bosqich. Audiomatnni tinglab tushunish bosqichi;
- 4-bosqich. Matinni tinglab tushunish

Matinni tinglab tushunishga tayyorlov mashqlarini quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1. O'qituvchi ko'rsatmasini eshitib, uni tez bajarish mashqlari;
2. Noto'g'ri fikr eshitganida, qo'l ko'tarish mashqlari;
3. O'qituvchi nutqida tasvirlanayotgan, ish harakati yoki voqea sodir bo'lgan joyni aniqlash bo'yicha mashqlar;
4. O'qituvchi nutqida ataylab tashlab ketilgan narsa, voqea nomlarini aniqlash mashqlari;
5. O'qituvchi fikriga qo'shilsa, uni tasdiqlash mashqlari;
6. Tug'ilgan kunlar sanasi yozilgan kartochkalarni ko'rib, u kimniki ekanligini aniqlash mashqlari;
7. O'qituvchining bir kunlik ish rejasini eshitib, unda qanday muhim punkt tushirib qoldirilganligini aniqlash mashqlari;

8. O'qituvchi hikoyasida tilga olingan narsalar, voqealar, hodisalar nomlarini esda qoldirish bo'yicha mashqlar;

9. Muayyan bir kishining ismi, yoshi, millati, kasbi va h. haqidagi axborotni eshitib, uni ona tilida qayd qilish mashqlari;

10. Voqea sodir bo'lgan joyni kartadan ko'rsatish mashqlari;

11. Eshitilgan axborot va namoyish qilinadigan tasviriy vositadagi farqlarni topish mashqlari;

12. Eshitilgan jumlaning sintagmalarga ajratish bo'yicha mashqlar;

13. Eshitiladigan nutqdan bir xil talaffuz qilinadigan, mazmunan farq qiladigan so'zlarni topish mashqlari;

14. Eshitilgan axborotdan mantiq va mazmunni tiklovchi tashlab ketilgan jumlaning topish mashqlari. Bunday tayyorlov mashqlari orqali o'quvchilarning dastlabki tinglab tushunish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar o'qituvchidan eshitgan ma'lum ko'rsatmalar orqali nutqiy harakat usullarini o'zlashtiradilar.

Tinglab tushunish ko'nikmalarini malakalarga aylantiruvchi nutq mashqlari bevosita audiomatn asosida tashkil qilinib bundako'proq tushunilgan axborot bo'yicha fikr bildirishga asosiy e'tibor beriladi. Nutq mashqlarini quyidagi ko'rsatmalar orqali tashkil qilish mumkin:

1. Hikoyani (parchani) eshitish va savollarga javob berish mashqlari;

2. Eshitilgan matndan asosiy fikrni aniqlash mashqlari;

3. Matn parchasini eshitib, uni izohlash mashqlari;

4. Dialogni boshini eshitib, uni davom ettirish mashqlari;

5. Dialogni eshitib, undagi asosiy mazmunni gapirib berish mashqlari;

6. Eshitilgan parchaga sarlavha qo'yish mashqlari;

7. Parchani eshitib, unga tuzilgan aralash reja punktlarini mantiqiy tartibda joylashtirish mashqlari;

8. Matn parchasini eshitib, o'qituvchi tomonidan berilgan fikrni to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlash mashqlari;

9. Matn parchasini eshitib, unga mantiqiy reja tuzish mashqlari;

10. Eshitilgan fikrga munosabat bildirish mashqlari;

11. Matnda fikr yuritilgan voqea-hodisa ro'y bergan joyni, mamlakatni, davrni izohlash mashqlari.

Keltirilgan mashq turlari audiomatnning mazmuniga va qiyinchilik darajasiga ko'ra turli ketma-ketliklarda uyushtirilishi mumkin.

Audiomatni jonli ovozda o'qituvchi tomonidan o'qib eshittirilishi yoki dasturogrammalardan eshittirilish bilan boshlanadi. Bu o'rinda matnni turli ovozda, erkak va ayol suxondonlar tomonidan o'qilishiga e'tibor berilishi lozim. Aks holda o'quvchilar bir suxondon ovoziga ko'niktirilishi va boshalarning ovozini eshitganida tushunishga qiynalib qolishlari mumkin.

Tinglab tushunishga mo'ljallangan matn (audiomatn) eshittirilayotganidan matnning har bir jumlasini ifodalaydigan mazmun o'quvchilarning barcha sezgilariga faol ta'sir qiladigan rasmlar seriyasi, ovozli va ovozsiz diafilmlar, applikasiyalar, imo-ishoralar, qarakatlar, predmetlar orqali namoyish qilib boriladi. Buning uchun o'qituvchi darsni rejalashtirishda mavzuga oid barcha vositalarni oldindan tayyorlaydi. Mashg'ulot boshlanishida darsning maqsadini, tinglab tushunish orqali ular qanday natijalarga erishish mumkinligini tushuntiradi. Lozim bo'lsa, matnda uchraydigan murakkab so'z birikmalarni, grammatik muammolarni kommunikativlik asosida izohlab beradi. Shundan so'ng audiomatn eshittirishga qo'yiladi.

Eshirilgan matnni tushunish malakalarini mustahkamlash uchun quyidagi usullarda mashqlar bajariladi:

1. O'quvchilar dastlab matnni eshitish jarayonida o'qituvchi ko'rsatgan ko'rgazmali vositalarni matn ketma-ketligida ko'rsatishni mashq qiladilar. Eshitish jarayonida gap ifodalagan mazmuni xatosiz va matn ketma-ketligidagi rasmlar, predmetlar, imo-ishora va harakatlar orqali ifodalab berish o'quvchilarda dastlabki tinglab tushunish ko'nikmalarining mustahkamlashga olib keladi. Qolaversa, bunday mashq o'yin xarakteriga egaligi, o'quvchilarga ijobiy emotsional ta'sir qilishi bilan o'quvchilarning qiziqishlarini, ilk faolligini yanada oshiradi.



2. Tinglab tushunishni mustahkamlash o'quvchilarning matnni go'shaklar orqali eshitib, pauzalarda jummalarni ovoz chiqarib takrorlashi, matn mazmunini ifodalovchi rasmlarni namoyish qilishlari orqali davom ettirilishi mumkin. Bunday mashq bir necha bor takrorlanishi natijasida matnning xar bir jumlasini ifodalagan ma'no o'quvchilarga tobora tushunarli bo'la boshlaydi va shu orqali eshitilgan matn mazmuni to'la tushunilishga erishiladi. Bunday mashqlarni o'quv laboratoriyalarida mustaqil ish sifatida tashkil qilish yaxshi natijalarga olib keladi.

Tinglab tushunishga o'rgatishning yakunlovchi bosqichida audiomatnning o'quvchilar tomonidan tushunganlik darajalari tekshiriladi va baholanadi. Bunday tekshirish va baholash bir darsning alohida bosqichi yoki alohida dars sifatida uyushtirilishi mumkin. Bu bosqich ko'p jihatlari bilan gapirish malakalarini tekshirish va baholash bilan bog'lanib ketadi. Masalan, matn to'liq tushunilishiga erishilgach, baholash yoki tushunilganligini tekshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

1. O'qituvchining matn mazmuniga oid savollariga «ha» yoki «yo'q» deb javob berish;
2. Matn mazmuniga oid test savollarini yechish;
3. Matndan ma'no tashuvchi so'zlarni topish va ular yordamida jumla tuzish;
4. Matndagi personaj xarakteriga o'z munosabatini bildirish;
5. Matndan tabiat manzaralari, personajlar qiyofasi ifodalangan jummalarni topish va unga munosabat bildirish;
6. Matn mazmuni bo'yicha munozara uyushtirish;
7. Matnning magnit yozuvini eshitib, yoki eshitmasdan rasmlar, predmetlarni namoyish qilib, audiomatn mazmunini gapirib berish;
8. Matnning har bir jumlasini ona tilida eshitib, chet tiliga, chet tilida eshitib, ona tiliga tarjima qilish. Bu nafaqat tinglab tushunish malakasini shakllanganligini, balki o'quvchilarning ketma-ket tarjima qila olish malakalarini ham takomillashtiradi;

9. Matn bo'yicha juft bo'lib ishlash orqali savollarga javob berishni tashkil qilish;

Shunday qilib tinglab tushunishga o'rgatish eshitilgan matndan axborot olish, unga o'z munosabatini bildirish, bu munosabatni qiziqarli shakllarda ifodalash orqali muloqot uyushtirishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Zero hozirgi paytda chet tili o'qitishdan kuzatiladigan bosh maqsad ham o'quvchilarni jonli fikr almashuvga o'rgatishdir.

### **3.2. Tajriba-sinov ishlarini interaktiv mashqlar orqali o'tkazish**

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy samarali usullari hamma narsani o'z ichiga oladi masalan interaktiv mashqlardan multimedia resurslarigacha. Tinglash qobiliyati eng yaxshi o'rganishi mumkin bo'lgan qobiliyat sanaladi. Chunki o'rganishga birozgina ko'proq e'tibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilandi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatda siz kichik yoki katta talabalar guruhlari bilan ishlashingiz muhim emas, siz o'zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo'llasangiz bas.

Talabalarga yaxshi tinglashni o'rgatishning o'ziga xos usullari:

- Shaxslararo faoliyat;
- Guruh faoliyati;
- Audio segmentlar;
- Video segmentlar;

Zero hozirgi paytda chet tili o'qitishdan kuzatiladigan bosh maqsad ham o'quvchilarni jonli fikr almashuvga o'rgatishdir.

**Shaxslararo faoliyat**, bunday faoliyatda talabalarda kuchli tinglashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Ushbu metodga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Rol ijro etish

2. Soxta intervyular
3. Shaxslararo dialoglar
4. Hikoya qilish va boshqalar

Bunda talabalar ikki yoki uch kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi, va ularga uslubga mos savollar beriladi.

Masalan, siz talaba bilan kompaniyadagi ish yoki gazetadagi maqola uchun intervyu olishini aytishingiz mumkin. Hikoya qilish faoliyati esa talabalarga savollar berish imkoniyatini berish orqali ularni ancha rivojlantirishi mumkin.

**Guruh faoliyati**, bunda katta guruh faoliyati ham talabaga o'zaro muloqotda tinglab tushunishni rivojlantirishlariga yordam beradi.

Talabalarga tinglash qobiliyatini o'rgatishning foydali usuliga bundan tashqari oddiy guruh faoliyati ham yaxshi misol bo'la oladi. Birinchi mashg'ulot uchun talabalar besh yoki undan ko'p guruhlariga bo'linadi va ularga bir qiziqish yoki kamida ikkita boshqa sevimli mashg'ulotni o'rganishni buyurishingiz kerak. Bunda talabalarga aniqlovchi savollar berish kerak. Faoliyat davomida va siz ularga eslatma olishlariga ruxsat berishingiz mumkin, chunki bu foydalidir.

Faoliyatning ikkinchi qismi - bu talabalarga katta guruhdada o'tirishga ruxsat berishdur. Masalan ular o'zlari bilan yuzma-yuz kelgan guruh a'zosining ismi va ularning qiziqish hobbilari haqida muloqot qilishsin. Bu ikki faoliyat ham tinglashning samarali o'sishiga olib keladi.

**Audio segmentlar**, bu usulda asosan siz, o'quvchilarga audio segmentlar orqali tinglash ko'nikmalarini o'rgatishingiz mumkin masalan:

1. radio dasturlari
2. o'quv ma'ruzalari
3. onlayn podkastlar va boshqa audio xabarlar bilan.

O'quvchilar bilan sinfda va keyin interaktiv tinglash dasturlarini qo'llash kerak. Bunda ularga mashqni mustaqil ravishda bajarishlariga sharoit yaratish kerak. Avvalo, talabalarga ko'rsatma berib, o'rgatmoqchi bo'lgan har qanday narsani tasavvur qilish orqali tinglashga tayyorlash kerak. Ushbu turdagi

mashqlar uchun qisqaroq yoki uzunroq audio segmentlarni va qiyinroq yoki qulayroq materialni tanlash har bir o'qituvchiningning o'z ixtiyorida.

O'qituvchilar o'quvchilarni qiziqtirish uchun qiziqarli xabarlardan foydalanish mumkin. Ularni radio yoki televizordan olishi mumkin. Xabarlarni ularga yetkazish uchun kompyuterdan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi hamma so'zlarni tushunishlari shart emas, ammo xabarlarni diqqat bilan tinglashlari va xabar nima haqida ekanligini bilishlari kerak.

### **Video segmentlar**

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatish uchun boshqa eng foydali manba bu video segmentlardir ular:

1. qisqacha eskizlar
2. hujjatli filmlar
3. dramatik yoki komedik materiallar
4. yangiliklar dasturlari
5. intervyu segmentlari bo'lishi mumkin.

Audio segmentida bo'lgani kabi, o'qituvchi talabalarining darajasiga qarab audioning qismi va uzunligini tanlashi mumkin, ular buni video segmentda ham qilishlari mumkin.

Ushbu metodning asosiy shartlaridan biri uni hech qanday tovushsiz tomosha qilish va uni talaba bilan birgalikda muhokama qilish. Bu o'rganuvchilarning tinglash va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Filmlar va teleko'rsatuvlar. Filmlar sa'nat turlaridan biridir. Til o'rganuvchilarga so'z boyliklarini oshirish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun televizor ko'rish tavsiya qilinadi. Filmlar eng ko'p qo'llaniladigan dars metodlaridan biridir, chunki filmlarda keng qamrovli so'z boyliklari kashf qilinadi.

### **3.3.Tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili**

Tadqiqotimiz jarayonida, ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishda gapirish va tinglashga yetarlicha vaqt ajratilmasligini aniqladik. Lekin, tinglash til urganuvchilarda mustaqil, zaruriy va eng qiyin nutq faoliyatidir. Bugungi kunda nutq faoliyatining shakli sifatida tinglash nutq jarayonida muxim ro'l o'ynaydi. «Zamonaviy jamiyatda odamlar 48% tinglashadi, 28% gapirishadi, 16% kishidan, 8% yozishadi. Binobarin, og'zaki nutqning ajralmas qismi eshitish va tinglash (auditiv faoliyat)dir.

Xorijiy tillar o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiya nutq faoliyati turlarini o'rganilayotgan tilda kommunikativ maqsad sifatida o'rganish nazarda tutiladi. Biz nemis tili o'rgandigan o'quvchilar uchun 2022 yilda nashr etilgan «Aspekte junior» darsligini o'rgandik. Bu o'quv to'plamining bir qismi bo'lib, o'quvchilar kitobi, o'qituvchi kitobi va kompakt diskdan iborat.

Yuqori kurs talabari uchun nemis tilidagi o'quv dasturi va darsliklarini qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan taxlil qilib, yangi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturida talabalarning tinglab tushunishga qo'yilgan talablarni o'rgangan xolda quyidagi darslikka audiovizual materiallar bilan ishlash, maxsus mashqlar tizimi qo'shimcha tarzda kiritilishi zarur degan xulosaga keldik.

Инсонлар эслаб қоладилар		Н	Ў
10%	1	О	Қ
10%	2	Ф	И
	3	А	Т
	4	О	И
30%	5	Л	Ш
50%	6		
70%	7	Ф	Ў
	8	А	Қ
	9	О	И
90%		Л	Т
			Ш

### 3.1-rasm. Chet tilini o'rgatishda videomateriallardan foydalanib nafaol va faol o'qitishning pedagogik algoritmidan faol foydalandik

Mashq (a.-3<sup>d</sup>- xusnixat, rasm chizish uchun namunalar) - biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish. Ta'limning asosiy vositasi - mashq, ularning bajarilishi ta'lim maqsadiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Mashqda - uzining bilimlarini chuqurlashtirish xamda tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida xarakatlarni og'zaki va yozma ravishda takroran amalga oshirish. Mazkur atamaga metodik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar beriladi:

- 1) chet tilda bajariladigan o'quv amali;
- 2) tarkibi talab xamda material qismlaridan iborat o'quv birligi;
- 3) til xodisalariga oid bilimlarni egallash, leksik, grammatik, talaffuz kunikmalarini shakllantirish, mazkur birliklarni nutq vaziyatida to'g'ri qo'llash amali;
- 4) muayyan tarzda tashkil etiladigan va qayta-qayta bajariladigan, uni egallab olishga xamda bajarish usullarini takomillashtirishga yo'naltirilgan aqliy xarakat;
- 5) kompetentsiyalar rivojlanadigan «muxit» yoki «ekosistema»;
- 6) kompetentsiyalar egallanishini ta'minlash vositasi.

Mashqning qisqacha ta'rif-tasnifidan so'ng chet til metodistlari orasida munozaralarga sabab bo'layotgan «mashqlar sistemasi» atamasini ko'rib chiqamiz. Xozirgacha mashqlar sistemasi uning tarkibiy qismlari, mashqlar sistemasining tasnifi borasida bir qancha lingvistik, psixolingvistik, didaktik va pedagogik tadqiqot ishlari olib boriladi:

- 1) chet til o'qitish metodikasida barcha mashqlarni lingvistik nuqtai nazardan til va nutq mashqlari nomi bilan yuritib kelinadi;
- 2) psixolingvistik nuqtai nazardan mashqlar:
  - a) informatsiey – bilim o'rgatadigan;
  - b) operatsion - til materialini o'rgatish orqali ko'nikmani shakllantiradigan;
  - v) motivatsion - nutqiy malaka xosil qilish uchun bajariladigan guruxlarga ajratiladi;
- 3) shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar;
- 4) dasturetik-orfografik, grammatik lug'atlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar.

Yuqorida keltirilgan mashqlar tizimli ravishda osondan qiyinga, oddiydan murakkabga, bilimdan malakani shakllantiruvchi vaziyatda taqdim etilsa, o'quv fani oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin. Sababi, bugungi kun talabi o'quvchi talabalar egallagan bilim, kunikma va malakalarini real vaziyatda qo'llay olishi kerak. Yuqorida keltirilgan usullarni boshlang'ich sinflarda o'quv-bilish faolligini oshirishdagi salotsiyatiga e'tibor qaratgan. Bizningcha, yuqoridagi olimlarning bergan mashqlar tizimiga asoslangan holda tadqiqot ishimiz doirasida uzimizning tizimimizni (3.1-jadvalda) keltirib o'tdik.

**Audiovizual vositalardan foydalanib metakognitiv strategiyalarga  
asoslangan tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish tizimi**

Bosqichlar	Mashq va topshiriqlar	Interfaol texnologiyalar
Erkundung (ko'rib chiqishdan oldin) Informativ mashqlar (eshituv idroki)	Audiovizual materialning mavzusi bilan tanishish; tanlangan audiovizual materialga doir qisqa savol-javob; yangi so'z va iboralarni aniqlash; so'zlarni va so'z birikmalarini tematik guruhlariga birlashtirish (Mind- mapping)	Blits so'rov, Aqliy hujum
Ausarbeitung (Matnni tinglash; agar zarurat bo'lsa, takroriy tinglash yoki ko'rish) Repraduktiv mashqlar. (So'zlarning tovush tomonini dasturematik farqlash va mohiyatni anglash orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi.)	Xarakat va imo ishoralardan foydalanib fikrni tushinarli ifodalash, (verständliche Eingabe); kuzatish va tahlil jarayoni	Vidio- topishmoq strategiyasi
Konformations reflexion (tinglashdan keyin) Produktiv mashqlar (bilib olinadi va nihoyat tushiniladi)	Muhokama jarayoni, baxs munozara, savol-javob, xamkorlikda ishlash; o'yinlar orqali real kommunikativ vaziyatni yaratish; mavzu yuzasidan Zuordnung, Diskussion, Fragen mit kuzen Antworten, Mehrfachauswahl kabi topshiriqlar yordamida mavzu takomillashtiriladi.	Munozara, suxbat



Talabalar bilan audiovizual matn ustida ishlashning quyidagi to'rt bosqichi tavsiya etiladi:

- 1) matn oldi tayyorlov mashqlari bilan ishlash;
- 2) matn bilan ishlash;
- 3) matndan keyingi bosqich;
- 4) tayyorlanmagan nutqni rivojlantirish.

Chet til o'qitish metodikasida matnni tinglab tushunishning ikki darajasi:

- ma'no
- mazmun

darajalari bir- birlaridan mohiyatan farqlanadi.

Uning ma'no darajasida lisoniy birliklarning ma'nosini farqlab yetishga erishiladi.

Mazmun darajasi deganda esa, idrok qilingan yoki jamlab olingan axborotni qayta ishlash, o'zlashtirish bilan bog'liq, to'liq va aniq tushunish nazarda tutiladi.

Matnni to'liq tushunish matndan o'zlashtirilgan axborotlar miqdori bilan belgilanadi. Bu jarayon o'quvchining aqliy qobiliyati, til tajribasi va o'qish texnikasiga bog'liq. Namoyishdan oldingi bosqichda avval tinglab tushunishga tayyorlovchi - informativ topshiriqlar berilib, o'quvchilar audiovizual materialning mavzusi bilan tanishadilar, o'qituvchi tomonidan avvaldan tanlangan audiovizual materialga doir qisqa savol-javob (blits-so'rov) o'tkazadi, mavzu doirasida yangi so'zlar va iboralar aniqlanadi hamda ularni yozuv taxtasida tahlil qilinadi.

Ushbu topshiriqlar orqali o'quvchilar keyingi bosqich - namoyish jarayoniga tayyorlanadi, ya'ni namoyish jarayoni oddiy tomosha qilishdangina iborat bo'lib qolmasligi, namoyish vaqtida talabalar sotsiolingvistik kuzatish va ijtimoiy-madaniy tahlil qilish kabi o'ylashga jalb qiluvchi reproduktiv topshiriqlarni bajarishlariga, ko'rgan va eshitganlarini amaliy qo'llash bo'yicha real kommunikativ vaziyatni yaratishlariga zamin tayyorlanadi. Namoyishdan

keyingi bosqichda esa muhokama jarayoni baxs-munozara jarayoni bo'lib, savol-javob, hamkorlikda ishlash: akademik munozara, debat, suhbat strategiyalari qo'llash tavsiya etiladi.

Qo'shimcha tarzda mavzu yuzasidan *richtig/falsch, passende Worte, Diskussion, Ideenaustausch* kabi topshiriqlar yordamida mashqlarini bajarishlari tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning «Nemis tili darslarida tinglab tushunish kunikmasini audiovizual vositalar orqali rivojlantirish samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari» nomli uchinchi bobida tadqiqot ishini olib borishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bosqichlari, olingan natijalar va ularning statistik tahlili bayon etilgan. Tajriba-sinov ishining maqsadi olingan natijalarga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari yechimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chikishdir.

Bizning tajriba-sinov ishimiz dissertatsiyaning boshida ilgari surilgan g'oyani real sharoitda sinovdan o'tkazib, olib borayotgan ishimizda samarali ta'sir etuvchi omillar asosida yangi va ijobiy natijaga erishishga qaratilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishimizning maqsadi - nemis tilini o'qitishda o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Eksperimentlarni bajarishda oliy o'quv yurti talabalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil oluvchi o'quvchilarga nemis tilini o'qitishda ularning tinglab tushunish ko'nikmalarini audiovizual vositalar yordamida rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan mashq va vazifalar tizimini sinovdan o'tkazdik. Olib brogan tadqiqotlarimizdan maqsad - taklif etilgan mashq va topshiriqlar tizimining samaradorligi va erishilgan natijalarni aniqlashdan iboratdir.

Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirishga qo'yilgan ilmiy-metodik talablarga ko'ra, 3 ta ta'lim muassasasi tajriba-sinov maydoni sifatida belgilandi,

ular respublikaning bir xil mintaqalarining turli hududlarida joylashgan. Tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyatidagi Termiz davlat universiteti hamda Sariosiyo tumanidagi 23 va 88-sonli umumta'lim maktablarida quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Asoslovchi-tahliliy bosqich.
2. Shakllantiruvchi-amaliy bosqich.
3. Tasdiqlovchi-xulosalash bosqichi.

Birinchi asoslovchi bosqichda tanlab olingan ta'lim muassasalari o'quv jarayonidagi mavjud holatlar o'rganildi; maktablarda o'quv reja, o'quv adabiyotlari, darsliklar, qo'llanmalar, multimedia vositalari, lingvokabinetlar tahlil etildi; nemis tili mashg'ulotlari kuzatildi; o'qituvchi va o'quvchilar orasida anketa-surovnomalari o'tkazilib, tinglab tushunish ko'nikma tushunchasi, uning ahamiyati, talabalar va o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasin shakllanganlik darajasi, jarayondagi yuzaga keluvchi to'siq va muammolar aniqlandi hamda shu asosida tadqiqot ishi mavzusi shakllantirildi.

Ikkinchi shakllantiruvchi bosqichda respondentlar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba-sinov ishlari uchun bilim darajasi teng bulgan ikki guruh tanlab olindi va eksperiment jarayoni boshlandi. Bunda chet tili dasturida ko'zda tutilgan o'quv soatlari, ta'lim materiallari, talabalar va o'quvchilarning mavjud bilish darajalarining tengligi, jalb etilgan o'qituvchilar tarkibining bir xilligi inobatga olindi. Nemis tili o'rganayotgan talabalar va o'quvchilarning tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov dasturida tadqiqot ishi natijasi sifatida tavsiya qilingan, ularda tinglab tushunish kompetentsiyani kompleks rivojlantirishga qaratilgan uch bosqichli mashq va topshiriqlar tizimini yaratishda «Deutschunterricht mit Videoclips für die Studenten & Schülern» o'quv qo'llanmasidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari tabiiy sharoitda o'tkazildi. Tajriba-sinov o'tkazish uchun yuqorida ko'rsatilgan ta'lim muassasalaridan tajriba guruhi (TG) da 187 ta va nazorat guruhi (NG) da 165 ta o'quvchi ishtirok etdi (3.2-jadvalga qarang).?

### 3.2-jadval

#### Pedagogik tajriba-sinov jarayoni maydoni tavsifiga unda ishtirok etgan o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar soni

T/R	Ta'lim muayssasalari	Magistirluk dissertatsiyasi yuzasidan o'tkazilgan ITI va IPIda qatnashgan				
		O'qituvchilar	Kurs /sinf	TG	NG	Jami;
1.	Termiz davlat universiteti	3	3-kurs	45	40	172
			4-kurs	47	40	
2.	Sariosiyo tuman 23-sonli umumta'lim maktabi	3	10-sinf	20	20	85
			11-sinf	25	20	
3.	Sariosiyo tuman 88-sonli umumta'lim maktabi	3	10-sinf	22	20	87
			11-sinf	25	20	
Jami:		9	3/3	187	165	344

Tajriba-sinov ishi uni tashkillashtirishga qo'yilgan ilmiy-metodik talablarga ko'ra olib borildi. Dastlab o'quvchilarning nemis tilidagi autentik matnlarni tinglab tushunish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi aniqlab olindi. Tajriba so'ngida olingan yakuniy miqdor ko'rsatkichlari 3.3-jadvallarda keltirib o'tilgan.

**Nemis tili darslarida tinglab tushunish ko'nikmasini audiovizual vositalar yordamida rivojlantirish dinamikasi**

Darajalar	Asoslovchi bosqich				Ta'kidlovchi bosqich			
	Oliy ta'lim muassasalari				Umumta'lim maktablari			
	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
5 (a'lo)	14	15,2%	7	8,8%	42	45,7%	9	11,2%
4 (yaxshi)	18	19,6%	15	18,8%	27	29,3%	16	20,0%
3 (o'rta)	19	20,7%	37	46,2%	18	19,6%	39	48,8%
2	41	44,5%	21	26,2%	5	5,4%	16	20,0%
<i>Jami</i>	92	100%	80	100%	92	100%	80	100%

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan o'quvchilarning nemis tili darslarida tinglab tushunish ko'nikmasini audiovizual vositalar yordamida rivojlantirish mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.


Tajriba-sinov natijalari taxliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruxidagi o'quvchilarning nazorat guruxi o'quvchilariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu xolatni ob'ektiv baxolash uchun statistik taxlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri, samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Magistirlilik dissertatsiya tajriba-sinov davrida xam statistik taxlilni amalga oshirish uchun « *wer bin ich* » metodi tanlandi.

